

**SAMARQAND IQTISODIYOT VA SERVIS INSTITUTI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.03/2025.27.12.I.27.01 RAQAMLI
ILMIY KENGASH**

SAMARQAND IQTISODIYOT VA SERVIS INSTITUTI

USMANOVA ZUMRAD ISLAMOVNA

**O‘ZBEKISTONDA TURISTIK-REKREATSION XIZMATLAR SOHASI
SALOHIYATIDAN SAMARALI FOYDALANISH METODOLOGIYASI**

08.00.05 – Xizmat ko’rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti

**Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Samarqand – 2026

**Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc)
dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора экономических наук
(DSc)**

Content of the Doctoral (DSc) dissertation abstract

Usmanova Zumrad Islamovna

O'zbekistonda turistik-rekreations xizmatlar sohasi salohiyatidan samarali
foydalanish metodologiyasi.....3

Usmanova Zumrad Islamovna

Методология эффективного использования потенциала сферы туристско-
рекреационных услуг в Узбекистане40

Usmanova Zumrad Islamovna

Methodology for the effective use of the potential of tourism-recreation services
sector in Uzbekistan 82

E'lon qilingan ishlar ro'yxati

Список опубликованных работ

List of published works 95

**SAMARQAND IQTISODIYOT VA SERVIS INSTITUTI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.03/2025.27.12.I.27.01 RAQAMLI
ILMIY KENGASH**

SAMARQAND IQTISODIYOT VA SERVIS INSTITUTI

USMANOVA ZUMRAD ISLAMOVNA

**O‘ZBEKISTONDA TURISTIK-REKREATSION XIZMATLAR SOHASI
SALOHIYATIDAN SAMARALI FOYDALANISH METODOLOGIYASI**

08.00.05 – Xizmat ko‘rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti

**Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Samarqand – 2026

Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2024.2.DSc/Iqt681 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya Samarqand iqtisodiyot va servis institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb – sahifasida (www.sies.uz) va «Ziyonet» Axborot-ta’lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy maslahatchi:

Rasmiy opponentlar:

Pardayev Mamayunus Qarshiboyevich
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Aliyeva Mahbuba Tuychiyevna
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Matyakubov Umid Raximovich
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Yetakchi tashkilot:

Buxoro davlat universiteti

Dissertatsiya himoyasi Samarqand iqtisodiyot va servis instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/2025.27.12.I.27.01 raqamli ilmiy kengashining 2026 yil «_____» _____ soat ____dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. Manzil: 140100, Samarqand shahri, Amir Temur ko‘chasi, 9-uy. Tel: (998 66) 233-19-84; Faks:(998 66) 231-12-53, e-mail: sies_info@edu.uz.

Dissertatsiya bilan Samarqand iqtisodiyot va servis institutining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (_____ raqam bilan ro‘yxatga olingan). Manzil: 140100, Samarqand sh., A.Temur ko‘chasi, 9-uy. Tel.: (99866) 233-19-84; Faks: (998 66) 231-12-53; e-mail: sies_info@edu.uz.

Dissertatsiya avtoreferati 2026 yil «_____» _____ kuni tarqatildi
(2026 yil «_____» _____dagi _____ raqamli reyestr bayonnomasi).

M.E.Po‘latov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy
kengash raisi, iqtisodiyot fanlari
doktori, professor

Sh.O.Quvondiqov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy
kengash ilmiy kotibi, iqtisodiyot
fanlari doktori, professor

M.T.Alimova

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy
kengash qoshidagi ilmiy seminar
raisi, iqtisodiyot fanlari doktori,
professor

KIRISH (fan doktori (DSc) dissertatsiya annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Xalqaro iqtisodiy munosabatlarning globallasuvi sharoitida turistik-rekreatsion xizmatlar hajmining va makroiqtisodiy ko'rsatkichlardagi ulushining barqaror o'sish sur'atlari natijasida turizm jahon iqtisodiyotining yetakchi tarmoqlaridan biri sifatida e'tirof etilmoqda. Jahon turizm va sayyohat kengashi ma'lumotlariga ko'ra, turizm sohasi "2025-yilda jahon miqyosida 1,7 trln. AQSh dollardagi yalpi daromadni va jahon yalpi mahsulotining 10,5 foizini, 337,7 mln. ish o'rnini va dunyo bo'yicha ish bilan band aholining 10,6 foizini"¹ ta'minlagan. Ayrim mamlakatlar kesimida turizmning milliy iqtisodiyotdagi ulushi "Portugaliyada – 19,6, Yunonistonda – 19,2, Ispaniyada – 14,5 foiz, Turkiyada – 12 foiz, BAAda – 11,7 foiz, Germaniyada – 11 foiz, Avstriyada – 10,6 foiz, Italiyada – 10,5 foiz, Fransiyada – 8,8 foizni"² tashkil etgan. Hududlarining turistik-rekreatsion xizmatlar sohasi salohiyatidan oqilona va samarali foydalanish asosida turistik-rekreatsion xizmatlar sohasini milliy iqtisodiyotning yetakchi drayveriga aylantirish hamda uning barqaror rivojlanishini ta'minlashga erishilmoqda.

Jahonda turistik-rekreatsion xizmatlar sohasi salohiyatidan samarali foydalanishning metodologik asoslarini takomillashtirish masalalariga bag'ishlangan ilmiy tadqiqotlarga alohida e'tibor qaratilmoqda. Ushbu yo'nalishda olib borilayotgan tadqiqotlarda hududlarning tabiiy-geografik, tarixiy-madaniy va ijtimoiy-iqtisodiy resurslarini kompleks baholash, turistik-rekreatsion xizmatlar sohasi salohiyatini aniqlash va uni boshqarishning ilmiy-uslubiy yondashuvlarini ishlab chiqish, shuningdek, turizm rivojlanishining iqtisodiy, ijtimoiy-madaniy va ekologik oqibatlarini baholash masalalari kabi muhim masalalar tadqiq etilmoqda. Shu bilan birga turistik-rekreatsion xizmatlar sohasi tarkibiy komponentlarini shakllantirish, turistik-rekreatsion xizmatlar sohasi salohiyatini baholashning sifatiy va miqdoriy uslublarini raqamli yondashuvlar asosida takomillashtirish, geoaxborot tizimlarini shakllantirish orqali turistik hududlarni rivojlantirish va turistik-rekreatsion resurslardan foydalanishni optimallashtirish qarorlarini qabul qilish, hududlarda turistik-rekreatsion xizmatlar sohasi salohiyatidan kelib chiqib turistik oqimlarni prognozlash va optimallashtirishda sun'iy intellektlan foydalanish yo'nalishlaridagi tadqiqotlar muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Mamlakatimizda turizm sohasini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Sohada amalga oshirilgan keng qamrovli institusional islohotlar tufayli muayyan ijobiy natijalarga erishildi, jumladan sohaning "mamlakat yalpi ichki mahsulotidagi ulushining 3,4 foizga, eksport salohiyatidagi hissasining 4,5 foizga"³ yetishi ta'minlandi. Mazkur ko'rsatkichlarga erishishda o'rta muddatli istiqbolda turizm sohasidagi davlat siyosatining maqsadli vazifalari va ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida "...turizmga iqtisodiyotning strategik sektori maqomini berish, ushbu sohani barcha hududlarni va o'zaro bog'liq tarmoqlarni kompleks ravishda jadal

¹ Travel & Tourism: Economic Impact 2025 World. Available at: [file:///C:/Users/User/Downloads/EIR%20Factsheet%20-%20World%202025%20\(1\).pdf](file:///C:/Users/User/Downloads/EIR%20Factsheet%20-%20World%202025%20(1).pdf)

² Travel & Tourism Economic Impact 2025 Italy. Available at: https://assets-global.website-files.com/6329bc97af73223b575983ac/6643614d92fb79fabb34d12d_EIR2024-Italy.pdf

³ Travel & Tourism: Economic Impact 2023 Uzbekistan. file:///C:/Users/User/Downloads/647f14cb29945e231c474e49_EIR2023-Uzbekistan.pdf

rivojlantirishning yetakchi kuchiga aylanishi lozim bo'lgan iqtisodiyotni diversifikasiyalash, tarkibiy o'zgartirish va barqaror rivojlanishning qudratli vositasiga aylantirish..."⁴ belgilanganligi muhim turtki sifatida xizmat qildi. Bugungi kunda "keyingi besh yilda xorijiy turistlar sonini 2 karra – 11 million nafardan 20 million nafarga oshirish, turizm xizmatlari hajmini esa 20 milliard dollarga yetkazish"⁵ vazifasi sohani jadal rivojlantirishning strategik yo'nalishi hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 27-iyuldagi PQ-238-son "Turizm yo'nalishidagi islohotlarni yanada jadallashtirish va sohada davlat boshqaruvi tizimini samarali tashkil qilish chora-tadbirlari to'g'risida", 2023-yil 26-apreldagi PQ-135-son "Respublikaning turizm salohiyatini jadal rivojlantirish hamda mahalliy va xorijiy turistlar sonini yanada oshirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarorlari, 2025-yil 15-maydagi PF-87-son "2025–2026-yillarda sayyohlar oqimini keskin ko'paytirish va turistik xizmatlar ko'lamini jadal kengaytirish orqali turizmning iqtisodiyotdagi o'rni va ahamiyatini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmoni, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 30-sentyabrdagi 828-son "Samarqand viloyatining turizm salohiyatidan samarali foydalanish va uni rivojlantirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori hamda sohani tartibga soluvchi boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada ilmiy-amaliy asos bo'lib xizmat qiladi⁶.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga bog'liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. "Demokratik va huquqiy jamiyatni ma'naviy-ahloqiy va madaniy rivojlantirish, innovasion iqtisodiyotni shakllantirish" ustuvor yo'nalishiga muvofiq bajarilgan.

Dissertatsiya mavzusi bo'yicha xorijiy ilmiy-tadqiqotlar sharhi⁷. Jahonda turistik-rekreatsioon xizmatlar sohasi salohiyatidan samarali foydalanish,

⁴ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2016 yil 2 dekabrda PF-4861-sonli "O'zbekiston Respublikasining turizm sohasini jadal rivojlantirishni ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2016 y.

⁵ <https://www.scribd.com/document/982926712/Murojaatnoma-26-12-2025y-1>

⁶ <https://lex.uz> – O'zbekiston Respublikasi Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi.

⁷ Dissertatsiya ishida quyidagi xorijiy ilmiy tadqiqotlar va iqtisodchi olimlarning ilmiy izlanishlaridan foydalanilgan. UN Tourism. Tourism for Development: Innovation, Sustainability and Digital Transformation. Madrid: UN Tourism, 2023. – 132 p. URL: <https://www.unwto.org>; World Travel & Tourism Council (WTTC). Transforming Tourism Through Technology. London: WTTC, September 2022. – 58 p. URL: <https://wtcc.org>; Organisation for Economic Co-operation and Development (OECD). Boosting Innovation in Tourism: Policy Recommendations. Paris: OECD Publishing, 2023. – 97 p. URL: <https://www.oecd.org>; European Travel Commission (ETC). Data-driven Tourism Strategies. Brussels: ETC, 2024. – 84 p. URL: <https://etc-corporate.org>; University of Surrey (Angliya). Centre for Competitiveness of the Visitor Economy: Tourism Demand, Economic Impact and Destination Competitiveness Studies. Guildford: University of Surrey, 2024. URL: <https://www.surrey.ac.uk>; The Hong Kong Polytechnic University (Xitoy). Hospitality and Tourism Research Centre: Tourism Management, Hospitality Innovation and Destination Development. Hong Kong: PolyU, 2024. URL: <https://www.polyu.edu.hk>; Leeds Metropolitan University / Leeds Beckett University (Angliya). Events, Tourism and Hospitality Management Research: Sustainable Tourism, Events and Visitor Economy. Leeds: Leeds Beckett University, 2024. URL: <https://www.leedsbeckett.ac.uk>; Gazi University (Turkiya). Tourism Management and Recreation Studies: Recreational Resources, Tourism Education and Service Quality.

hududlarning turizm-rekreatsiya imkoniyatlarini baholash, tabiiy, tarixiy-madaniy va infratuzilmaviy resurslardan oqilona foydalanish, turizm xizmatlarini innovatsion va raqamli texnologiyalar asosida rivojlantirish hamda turistik hududlarning raqobatbardoshligini oshirishning ilmiy-metodologik asoslarini tadqiq etishga qaratilgan ilmiy izlanishlar xalqaro tashkilotlar, yetakchi ilmiy markazlar va oliy ta'lim tashkilotlari tomonidan keng ko'lamda olib borilmoqda. Jumladan, Birlashgan Millatlar Tashkilotining Turizm bo'yicha ixtisoslashgan agentligi (UN Tourism), Jahon sayohat va turizm kengashi (WTTC), Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti (OECD), Yevropa sayohat komissiyasi (ETC), Surrey universiteti (Angliya), Gonkong politexnika universiteti (Xitoy), Lids Bekket universiteti (Angliya), Gazi universiteti (Turkiya), Rossiya xalqaro turizm akademiyasi (Rossiya), Prognozlashtirish va makroiqtisodiy tadqiqotlar instituti, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, Samarqand iqtisodiyot va servis instituti (O'zbekiston) mazkur yo'nalishda ilmiy tadqiqotlar olib bormoqda.

Jahonda turistik-rekreatsion xizmatlar sohasi salohiyatidan samarali foydalanishning metodologik asoslariga oid olib borilgan tadqiqotlar asosida qator, jumladan, quyidagi ilmiy natijalar olingan: hududlarning turistik-rekreatsion xizmatlar sohasi salohiyatini kompleks baholash va uni samarali boshqarish modellari ishlab chiqilgan (University of Surrey, Angliya); tabiiy, madaniy va ijtimoiy-iqtisodiy resurslardan foydalanish samaradorligini oshirishda institutsional va boshqaruv omillarining ta'siri aniqlangan (Harvard Business School, AQSh; University of Southern Denmark, Daniya); turistik-rekreatsion xizmatlar sohasi salohiyatini rivojlantirishda hududiy klasterlar, jamoat-xususiy sheriklik va innovasion yondashuvlarni qo'llashning uslubiy asoslari ishlab chiqilgan (European Tourism Futures Institute; Gazi University, Turkiya); turistik oqimlar va rekreatsion yuklama o'rtasidagi mutanosiblikni ta'minlash, barqaror rivojlanish va ekologik cheklovlarni inobatga olgan holda salohiyatdan foydalanish mexanizmlari taklif etilgan (University of Navarre, Ispaniya; The Hong Kong Polytechnic University, Xitoy).

Turistik-rekreatsion xizmatlar sohasi salohiyatidan samarali foydalanishning metodologik asoslari bo'yicha jahonda quyidagi ustuvor yo'nalishlarda tadqiqotlar olib borilmoqda: turistik-rekreatsion resurslarni identifikasiya qilish, tasniflash va kompleks baholash metodlarini takomillashtirish; hududning turistik-rekreatsion xizmatlar sohasi salohiyatini integral indekslar asosida o'lchash usullarini ishlab chiqish; tabiiy, tarixiy-madaniy va ijtimoiy-iqtisodiy resurslarni uyg'un boshqarish modellarini shakllantirish; barqaror rivojlanish tamoyillari asosida ekologik cheklovlar va yuklama me'yorlarini inobatga olgan holda foydalanish metodikasini takomillashtirish; geoaxborot tizimlari (GIS), raqamli platformalar va intellektual

Ankara: Gazi University, 2024. URL: <https://gazi.edu.tr>; Rossiya xalqaro turizm akademiyasi (Rossiya). Tourism Science and Education: Tourism Management, Recreational Development and Hospitality Studies. Moskva: RMAT, 2024. URL: <https://www.rmat.ru>; Prognozlashtirish va makroiqtisodiy tadqiqotlar instituti (O'zbekiston). Hududiy rivojlanish, xizmatlar sohasi va turizm salohiyatini iqtisodiy baholash bo'yicha ilmiy-amaliy tadqiqotlar. Toshkent: PMTI, 2024. URL: <https://imrs.uz>; Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti (O'zbekiston). Turizm iqtisodiyoti, xizmatlar bozori va hududiy turizmni rivojlantirish bo'yicha ilmiy tadqiqotlar. Toshkent: TDIU, 2024. URL: <https://tsue.uz>;

tahlil vositalari orqali turistik-rekreatsion xizmatlar sohasi salohiyatini monitoring qilish va prognozlash usullarini joriy etish.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Iqtisodiy adabiyotlarda turistik-rekreatsion xizmatlar sohasi rivojlanishining turli jabhalariga xos nazariy va metodologik masalalar o'rganilgan. Xususan, turizm iqtisodiyoti, turizm bozori iqtisodiyotiga xos bo'lgan iqtisodiy munosabatlarning nazariy asoslari va amaliy masalalari, shuningdek, turistik-rekreatsion resurslardan foydalanishning alohida muammolari MDH mamlakatlari olimlaridan V.I.Azar, I.T.Balabanov, A.Yu.Aleksandrova, V.S.Bogolyubov, M.B.Birjakov, M.N.Dmitriyev, A.B.Zdorov, N.B.Zorin, M.A.Jukova, N.I.Kabushkin, V.A.Kvartalnov⁸ kabilarning ilmiy ishlarida ko'rib chiqilgan.

Iqtisodiyot tarmoqlarida iqtisodiy salohiyatdan, xususan turistik-rekreatsion xizmatlar sohasida resurslar salohiyatidan samarali foydalanish masalalari xorijlik olimlardan Onyejebu M., Okemini O.O., Ikenegbu T.C., Unaegbu J., Onyegiri C., T.Brykova, V. Postova, I. Mazurkevych, A. Kiziun, T.Semko, Kismartini, Yoga Aldi Saputra, Retna Hanan., Luo W., Wang Y., Yu H., & Han Y., Chen Y., Yan L., Zheng L., Sainu, M. A., Hermawan R., Kosmaryandi N., Yan L., Gao B. W., Zhang M., Kaya Hüseyin, Kurt Halil, Radovanov B., Dudic B., Gregus M., Marcikic Horvat A., Karovic V., Cetin Mehmet, Zorlu K., Dede V.⁹ kabilarning ilmiy ishlarida o'rganilgan.

⁸ Азар В.И. Экономика и организация туризма. - М.: Экономика, 2003. - 322 с.; Александрова А.Ю. Международный туризм. - М.: Аспект Пресс, 2002. - 346 с.; Боголюбов В.С. Экономика туризма: учеб. пособие для студ. высш. учеб. заведений. - М.: «Академия», 2005. - 192 с.; Биржаков М.Б. Введение в туризм: изд. 9-е, перераб. и доп. СПб.: Издательский дом «Герда», 2007. - 576 с.; Балабанов И.Т., Балабанов А.И. Экономика туризма: учебное пособие. - М.: Финансы и статистика, 2003. - 176 с.; Дмитриев М.Н., Забаева М.Н. Экономика и предпринимательство в социально-культурном сервисе и туризме: учебник. М.: ЮНИТИ - ДАНА, 2006. - 310 с.; Здоров А.Б. Экономика туризма. Учебник. - М.: Финансы и статистика, 2005. - 272 с.; Жукова М.А. Индустрия туризма: менеджмент организации. - М.: Финансы и статистика, 2003. - 192 с.; Кабушкин Н.И. Менеджмент туризма: учеб. пособие. - Минск: БГЭУ, 1999. - 440 с.; Зорин И.В., Квартальнов В.А. Энциклопедия туризма: справочник -М.: Финансы и статистика, 2000.- 368 с.

⁹ Onyejebu, M., Okemini, O. O., Ikenegbu, T. C., Unaegbu, J., & Onyegiri, C. (2023). Nnamdi Azikiwe Center: Historicizing the Immortalization of Zik's Lodge in Nigeria-the journey, the project, and tourism potentials. *Journal of Black Studies*, 54(6), 534-550.; T.Brykova V. Postova I. Mazurkevych A.Kiziun T.Semko. Social and Economic Potential of the EU Countries' Tourism and Hospitality Industry // *Journal of Sport and Tourism Studies*. – Vol. 6 No. 2.2023. – URL: https://czasopisma.ujd.edu.pl/index.php/sport/article/view/1853?utm_source=; Kismartini, Yoga Aldi Saputra, Retna Hanan. Sustainable tourism and economic potential under environmental challenges // *E3S Web of Conferences*. – 2025. URL: <https://www.e3sconferences.org/articles/e3sconf/pdf>; Luo, W., Wang, Y., Yu, H., & Han, Y. (2025). Mapping the resilience of tourist city: spatial correlation and elasticity of tourism resource value. *Humanities and Social Sciences Communications*, 12(1), 1-18.; . Chen, Y., Yan, L., & Zheng, L. (2025). Intelligent approach to Mining cultural tourism potential areas Based on YOLOv4: insights from Macau. *Journal of Asian Architecture and Building Engineering*, 24(1), 395-423.; Sainu, M. A., Hermawan, R., & Kosmaryandi, N. (2023). The development of tourism destinations based on natural tourism potential in Lohia District, Muna Regency. *Journal of Natural Resources & Environment Management/Jurnal Pengelolaan Sumberdaya Alam dan Lingkungan*, 13(2); Yan, L., Gao, B. W., & Zhang, M. (2017). A mathematical model for tourism potential assessment. *Tourism Management*, 63, 355-365. URL: <https://www.scopus.com/inward/record.uri?eid=2-s2.0-85030472912&doi=10.1016%2fj.tourman.2017.05.012>; Kaya, Hüseyin; Kurt, Halil . Contribution of concrete cultural constituents to the tourism potential of Safranbolu.2011.; Radovanov, B., Dudic, B., Gregus, M., Marcikic Horvat, A., & Karovic, V. (2020). Using a two-stage DEA model to measure tourism potentials of EU countries and Western Balkan countries: An approach to sustainable development. *Sustainability*, 12(12), 4903.; Cetin, Mehmet. Evaluation of the sustainable tourism potential of a protected area for landscape planning: A case study of the ancient city of Pompeiopolis in Kastamonu.2015. *International Journal of Sustainable Development and World Ecology*; Zorlu, K., & Dede, V. (2023). Evaluation of nature-based tourism potential in protected and sensitive areas by CRITIC and PROMETHEE-GAIA methods. *International Journal of Geoheritage and Parks*, 11(3), 349-364.

O'zbekiston sharoitida iqtisodiyotning turli soha va tarmoqlarida iqtisodiy salohiyatning mohiyati, xususan hududlarda turistik-rekreatsion xizmatlar sohasi rivojlanishi va salohiyatidan samarali foydalanish masalalari M.Q.Pardayev, I.S.Tuxliyev, M.M.Muxammedov, M.E.Po'latov, J.R.Zaynalov, Q.J.Mirzayev, B.N.Navruz-Zoda, N.U.Arabov, D.X. Aslanova, B.X.To'rayev, A.A.Eshtayev, N.Ye.Ibadullayev, M.T.Alimova, B.Sh.Safarov, N.Ibragimov, G.A.Alimova, A.B.Jumabayev, S.Norova, Z.Sadikov¹⁰ va bir qator boshqa iqtisodchi-olimlarning ilmiy ishlarida aks ettirilgan.

Yuqorida keltirilgan olimlarning ilmiy tadqiqotlari turistik-rekreatsion xizmatlar sohasini rivojlantirish va salohiyatidan foydalanish masalalariga bag'ishlangan ilmiy ishlar ichida muayyan o'rin va ahamiyatga ega bo'lsa-da, hududning turistik-rekreatsion xizmatlar sohasi salohiyatini baholash, undan samarali foydalanish xususiyatlari va rivojlanish tendensiyalarini aniqlash uslublarini takomillashtirish bilan bog'liq masalalar tadqiqotlar doirasida yetarlicha o'rin olmagan. Qolaversa, har bir muammo muayyan hudud, zamon va rivojlanish sharoitiga moslashtirilgan ilmiy yondashuv va yechimlarni talab etadi. Shu bois, yuqorida qayd etilgan holatlar turistik-rekreatsion xizmatlar sohasi salohiyatidan samarali foydalanishning metodologik asoslarini takomillashtirishga qaratilgan tadqiqotning maqsadi va vazifalarini belgilash uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

¹⁰ Pardayev M.Q. Turizmni rejalashtirish. Darslik. -T.: "Iqtisod-Moliya" nashriyoti, 2010. – 238 b.; Tuxliyev I.S., Abdurahimov S.A. Turizm: nazariya va amaliyot. Darslik (Uchinchi nashr) –T.: «Fan va texnologiyalar nashriyotmatbaa uyi», 2021.- 424 bet.; Muxammedov M.M. va boshqalar. Xizmat ko'rsatish sohasi va turizmni rivojlantirishning nazariy asoslari. // Monografiya. "Zarafshon" nashriyoti. 2017. – 300 b.; P'latov M.E., Mirzaev Q.J. va boshqalar. Global iqtisodiy rivojlanish (Turizm iqtisodiyoti). - «Fan va texnologiya», 2018.-308b.; Zaynalov J.R., Xusanova D.Sh. Модель оценки эффективности использования туристического потенциала. Актуальные вопросы совершенствования бухгалтерского учета, статистики и налогообложения: материалы VII международной научно-практической конференции 15 февраля 2018 г. Т.2.; М-во обр. и науки РФ, ФГБОУ ВО «Тамб. Гос. ун-т им. Г.Р. Державина» – С.35-41.; Mirzaev Q.J. va boshqalar. Табiiy resurslar iqtisodiyoti. Ўқув қўлланма-Samarqand, 2024- 458 bet.; Navruz-zoda B.N., Ibragimov N.S., Navruz-zoda Z.B., Navruz-zoda Sh.B. Turistik hudud raqobatbardoshligi. Monografiya. Buxoro: "Sadridin Salim Buxoriy" Durdona nashriyoti, 2017 – 156 b.; Arabov N. va boshq. Improving methods for assessing the effectiveness of tourism infrastructure development // E3S Web of Conferences. – 2023. – Vol. 452. – Article No. 07012. – DOI: 10.1051/e3sconf/202345207012; Aslanova D.X. Региональный туристский кластер: сущность и проблемы его эффективного функционирования. Monografiya. D.X.Aslanova, M.T.Alimova, Z.I.Sattarova. – Samarkand: Zarafshon, 2017. – 225 c.; Turaev B.X. Организационно-экономические механизмы регионального туризма. -T.: "Fan", 2009. – 154 s.; Eshtayev A.A.Globallashuv sharoitida turizm industriasini boshqarishning marketing strategiyasi. (O'zbekiston Respublikasi turizm tarmog'i misolida) iqtisodiyot fanlari doktori ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. – S.: SamISI, 2019. – 246-b.; Alimova M.T. Hududiy turizm bozorining rivojlanish xususiyatlari va tendensiyalari (Samarqand viloyati misolida): i.f.d.... dissertatsiya. - S.: SamISI, 2017. – 265 b.; Safarov B.Sh. Milliy turizm xizmatlar bozorini innovatsion rivojlantirishning metodologik asoslari // Monografiya. – Toshkent: "Fan va texnologiya" nashriyoti, 2016. - 184 b.; Ibragimov N. (2020). Turistik hududni barqaror rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari. Monografiya, "Durdona" nashriyoti Buxoro -2020.; Ibadullaev N.E. Turistik resurslardan foydalanish samaradorligini oshirish imkoniyatlari (Samarqand viloyati misolida): i.f.n..... dissertatsiya. - S.: SamISI, 2010.; Alimova G.A. Ijtimoiy-iqtisodiy barqarorlikni ta'minlash omili sifatida harbiy rekreatsiyani faollashtirishning uslubiy asoslari. Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc.) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. –T.: TDIU. 2024. – 228-b; Жумабаев А.Б. Mintaqaning iqtisodiy salohiyatidan samarali foydalanish (Qoraqalpog'iston Respublikasi misolida): дисс. ... фалсафа доктори (PhD) по иктисодиёт. – Тошкент, 2025.; Norova S, Ochilov Sh, Nizamov A. Potential of economic growth in the region // Solid State Technology. – 2020. – Vol. 63, No. 3. – URL: <https://mail.solidstatetechnology.us/index.php/JSST/article/view/1245> ; Sadykov Z.va boshq. (2023). Tourism potential and the assessment of tourist destinations as basis for the tourism sustainable development. Journal of Environmental Management & Tourism, 14(4), 2117-2126.

Dissertatsiya mavzusining tadqiqot amalga oshirilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Samarqand iqtisodiyot va servis institutining "Iqtisodiyotdagi chuqur tarkibiy o'zgarishlar sharoitida xizmat ko'rsatish sohasi tarmoqlarini rivojlantirishning nazariy va amaliy muammolari" mavzusidagi ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi innovatsion iqtisodiyot sharoitida O'zbekistonda turistik-rekreatsion xizmatlar sohasi salohiyatidan samarali foydalanish metodologiyasini takomillashtirish bo'yicha ilmiy taklif va tavsiyalarni ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

"salohiyat", "turistik-rekreatsion resurlar", "turistik-rekreatsion xizmatlar sohasi salohiyati" kategoriyalarining mohiyatini nazariy jihatdan tahlil etish hamda muallif qarashlarini shakllantirish;

turistik-rekreatsion xizmatlar sohasi salohiyatining tarkibiy tuzilmasini ishlab chiqish;

turistik-rekreatsion xizmatlar sohasi salohiyati tadqiqi bo'yicha jahon ilmiy adabiyotlari bibliometrik tahlilini amalga oshirish;

hududning turistik-rekreatsion xizmatlar sohasi salohiyatidan samarali foydalanish bo'yicha xorij tajribasini tadqiq etish;

hududning turistik-rekreatsion xizmatlar sohasi salohiyatini baholashning miqdoriy va sifatii metodikalari qiyosiy tadqiq qilish;

turistik-rekreatsion xizmatlar sohasi rivojlanishining hudud ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga ta'sirini ekonometrik baholash;

O'zbekiston hududlari turistik-rekreatsion xizmatlar sohasi salohiyatini baholash uslubini sinergetik yondashuv asosida takomillashtirish bo'yicha ilmiy-uslubiy taklif va tavsiyalar ishlab chiqish;

O'zbekistonda turistik-rekreatsion xizmatlar sohasi rivojlanishi samaradorligini baholash uslubini takomillashtirish bo'yicha ilmiy-uslubiy taklif va tavsiyalar ishlab chiqish;

geoaxborot tizimi asosida turistik-rekreatsion resurslar kadastrini shakllantirishning konseptual asoslari bo'yicha taklif-tavsiyalar ishlab chiqish;

"Samarqand SMART-TRP" modeli asosida turistik-rekreatsion xizmatlar sohasi salohiyatidan samarali foydalanish yo'nalishlari bo'yicha taklif-tavsiyalar ishlab chiqish;

O'zbekistonda turistik-rekreatsion xizmatlar sohasi rivojlanishining prognoz parametralarini ishlab chiqish.

Tadqiqot obyekti sifatida O'zbekiston turistik-rekreatsion xizmatlar sohasi subyektlari faoliyati olingan.

Tadqiqot predmeti innovatsion iqtisodiyot sharoitida O'zbekistonda turistik-rekreatsion xizmatlar sohasi salohiyatidan samarali foydalanishning metodologik asoslarini takomillashtirish bilan bog'liq ijtimoiy-iqtisodiy, tashkiliy-iqtisodiy munosabatlar majmui hisoblanadi.

Tadqiqot usullari. Dissertatsiyada ilmiy abstraksiya, tahlil va sintez, induksiya va deduktsiya, tizimli tahlil, iqtisodiy-matematik usullar, jumladan,

regression tahlil, dinamik qatorlarni analitik tekislash va ekstropolyatsiya usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

turistik-rekreatsion xizmatlar sohasi salohiyati hududning tabiiy, madaniy, ijtimoiy-iqtisodiy, sog'lomlashtiruvchi, axborot va raqamli tarkibiy qismlarining o'zaro sinergetik integratsiyasi asosida shakllanadigan, turistik talabni qondirish orqali hududning barqaror rivojlanishi va raqobatbardoshligini ta'minlovchi dinamik-integral kategoriya sifatida ilmiy jihatdan asoslangan;

turistik-rekreatsion xizmatlar sohasi samaradorligi ko'rsatkichlarining (turistik-rekreatsion xizmatlar sohasida mehnat unumdorligi, joy fondi samaradorligi, joy sig'imi samaradorligi) me'yorlashtirilgan solishtirma salmoqlari asosida turistik-rekreatsion xizmatlar sohasi samaradorligining integral ko'rsatkichini baholash metodikasi hamda qiymatlari chegarasi ($TRXSS = 0,37-0,81$) ilmiy asoslangan;

turistik-rekreatsion xizmatlar sohasining tabiiy-resurs, tarixiy-madaniy, ijtimoiy-iqtisodiy, rekreatsion-sog'lomlashtirish salohiyati, transport qulayligi hamda ekologik barqarorlikni ifodalovchi indikatorlar integratsiyasi asosida aniqlangan turistik-rekreatsion xizmatlar sohasi salohiyati ko'rsatkichini past ($0 < TRS \leq 1,83$), o'rta ($1,83 < TRS < 2,48$), yuqori ($2,48 \leq TRS \leq 3,07$) shkala bo'yicha tabaqalashtirish orqali hududlarda manzilli dasturlarni ishlab chiqish taklifi asoslangan;

hududning turistik-rekreatsion xizmatlar sohasi salohiyatini samarali boshqarish va kompleks baholashga qaratilgan, geoaxborot tizimi, raqamli kadastr, smart-reyestr va sun'iy intellektni mujassamlashtiruvchi "Samarqand SMART-TRP" modeli taklif etilgan;

mamlakatimizda turistik-rekreatsion xizmatlar sohasi infratuzilmasining rivojlanishi asosida turizmni YaIMdagi ulushining 2026–2030-yillarga mo'ljallangan prognoz parametrlari asoslangan.

Tadqiqotning amaliy natijasi quyidagilardan iborat:

"salohiyat", "turistik-rekreatsion resurlar", "turistik-rekreatsion xizmatlar sohasi salohiyati" tushunchalarining takomillashtirilgan mualliflik ta'riflari ishlab chiqilgan;

turistik-rekreatsion xizmatlar sohasi salohiyati tadqiqi bo'yicha jahon ilmiy adabiyotlari bibliometrik tahlili tematik klasterlari ishlab chiqilgan;

turistik-rekreatsion xizmatlar sohasi salohiyatining tabiiy va mehnat, moddiy va moliyaviy, axborot va raqamli kombinatsion sig'im darajalari bo'yicha iyerarxik-kombinatsion tuzilmasi modeli ishlab chiqilgan;

O'zbekiston hududlari turistik-rekreatsion xizmatlar sohasi salohiyati, tabiiy-resurs salohiyati, tarixiy-madaniy salohiyat, ijtimoiy-iqtisodiy salohiyat, rekreatsion-sog'lomlashtirish salohiyati, ekologik barqarorlik, transport qulayligi elektron xaritalari ishlab chiqilgan;

elektron xaritalar, turistik hududlar pasportizatsiyasi va yagona integrasiyalashgan ma'lumotlar bazasini joriy etish natijasida turizmni boshqarish, monitoring qilish va rivojlantirish amaliy mexanizmi modeli ilmiy asoslangan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Tadqiqotda Butunjahon turizm tashkiloti, Jahon turizm va sayohatlar kengashi, Jahon banki, O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi, O'zbekiston Respublikasi turizm qo'mitasi rasmiy ma'lumotlaridan foydalanilganligi, qo'llanilgan usul va yondashuvlarning maqsadga muvofiqligi, xulosa, taklif va tavsiyalarining amalda sinovdan o'tganligi hamda muayyan ilmiy natijalarning amaliyotga joriy qilinganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati hududlarning turistik-rekreatsion xizmatlar sohasi salohiyatini baholash hamda innovatsion iqtisodiyot sharoitida hududlarning turistik-rekreatsion xizmatlar sohasi salohiyatidan samarali foydalanish bo'yicha olingan ilmiy xulosalardan ushbu yo'nalishga oid metodologik apparatni, tashkiliy-iqtisodiy mexanizmining kontseptual asoslarini takomillashtirishda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati turistik-rekreatsion xizmatlar sohasi salohiyatidan foydalanish samaradorligini oshirish, hududiy turizmni boshqarish tizimini takomillashtirish, turistik hududlarni kompleks baholash va reytinglash, hududiy marketing chora-tadbirlari, turizmni rivojlantirish strategiya va dasturlarini ishlab chiqish hamda ularning ijrosini monitoring qilish jarayonlarida, shuningdek turizm sohasi subyektlarining ichki va tashqi bozorlardagi raqobatbardoshligini oshirishda qo'llash mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Innovatsion iqtisodiyot sharoitida O'zbekistonda turistik-rekreatsion xizmatlar sohasi salohiyatidan samarali foydalanishning metodologik asoslari bo'yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

turistik-rekreatsion xizmatlar sohasi salohiyati hududning tabiiy, madaniy, ijtimoiy-iqtisodiy, sog'lomlashtiruvchi, axborot va raqamli tarkibiy qismlarining o'zaro sinergetik integratsiyasi asosida shakllanadigan, turistik talabni qondirish orqali hududning barqaror rivojlanishi va raqobatbardoshligini ta'minlovchi dinamik-integral kategoriya sifatidagi mohiyati takomillashtirilgan mualliflik ta'rifi 70411201 – Marketing mutaxassisligi magistrleri uchun tavsiya etilgan “Iste'molchini tushunish” nomli o'quv qo'llanmaga kiritilgan (Samarqand iqtisodiyot va servis instituti Kengashining 2025-yil 31-oktyabrdagi 3-sonli Qarori). Tadqiqot ishi natijalari “Iste'molchini tushunish” fanining mazmunini takomillashtirish va o'qitish sifatini oshirishga qaratilgan;

turistik-rekreatsion xizmatlar sohasi samaradorligi ko'rsatkichlarining (turistik-rekreatsion xizmatlar sohasida mehnat unumdorligi, joy fondi samaradorligi, joy sig'imi samaradorligi) me'yorlashtirilgan solishtirma salmoqlari asosida turistik-rekreatsion xizmatlar sohasi samaradorligining integral ko'rsatkichini baholash metodikasi hamda qiymatlari chegarasi ($TRXSS = 0,37-0,81$) bo'yicha ilmiy asoslangan taklif va tavsiyalar “2026–2028-yillarda hududlarning turizm salohiyatini izchil o'rganish natijasida amalga oshirilishi rejalashtirilgan chora-tadbirlar” dasturi va “Yo'l xaritasi”ga kiritilgan (O'zbekiston Respublikasi Turizm qo'mitasining 2025-yil 4-dekabrdagi 03-17/25-sonli ma'lumotnomasi). Natijada 2026–2028-yillar davomida mamlakatimizda turistik-rekreatsion xizmatlar sohasi rivojlanishi samaradorligining o'rtacha yillik 14 foizga o'sishi imkoniyati ilmiy asoslandi;

turistik-rekreatsion xizmatlar sohasining tabiiy-resurs, tarixiy-madaniy, ijtimoiy-iqtisodiy, rekreatsion-sogʻlomlashtirish salohiyati, transport qulayligi hamda ekologik barqarorlikni ifodalovchi indikatorlarni integratsiyalash asosida turistik-rekreatsion xizmatlar sohasi salohiyatini aniqlash metodikasi boʻyicha ilmiy taklif va tavsiyalar Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 15-maydagi PF-87-son “2025–2026-yillarda sayyohlar oqimini keskin koʻpaytirish va turistik xizmatlar koʻlamini jadal kengaytirish orqali turizmning iqtisodiyotdagi oʻrni va ahamiyatini oshirish chora-tadbirlari toʻgʻrisida”gi Farmonini amalga oshirish chora-tadbirlari “Xaritasi”ga kiritilgan (Oʻzbekiston Respublikasi Turizm qoʻmitasining 2025-yil 4- dekabrda 03-17/25-sonli maʼlumotnomasi). Natijada 2026–2030-yillarda hududlarning turistik-rekreatsion xizmatlar sohasi salohiyatidan samarali foydalanish orqali turizmning YaIMdagi ulushini 2,6 barobarga oshirish imkoniyati asoslandi;

hududning turistik-rekreatsion xizmatlar sohasi salohiyatini samarali boshqarish va kompleks baholashga qaratilgan, geoaxborot tizimi, raqamli kadastr, smart-reyestr va sunʼiy intellektni mujassamlashtiruvchi “Samarqand SMART-TRP” modeli boʻyicha ishlab chiqilgan ilmiy-amaliy taklif va tavsiyalar ham “2026–2028-yillarda hududlarning turizm salohiyatini izchil oʻrganish natijasida amalga oshirilishi rejalashtirilgan chora-tadbirlar” dasturi va “Yoʻl xaritasi”ga kiritilgan (Oʻzbekiston Respublikasi Turizm qoʻmitasining 2025-yil 4-dekabrda 03-17/25-sonli maʼlumotnomasi). Natijada 2026–2028-yillar davomida mamlakatimizning turistik-rekreatsion xizmatlar sohasi salohiyatidan samarali foydalangan holda turizmning YaIMdagi ulushini 2028-yilga kelib 6,2 foizga yetkazish imkoniyatlari ilmiy asoslandi;

mamlakatimizda turistik-rekreatsion xizmatlar sohasi infratuzilmasining rivojlanishi asosida turizmni YaIMdagi ulushining 2026–2030-yillarga moʻljallangan prognoz parametrlari boʻyicha ilmiy taklif va tavsiyalar “2026–2028 yillarda hududlarning turizm salohiyatini izchil oʻrganish natijasida amalga oshirilishi rejalashtirilgan chora-tadbirlar” dasturi va “Yoʻl xaritasi”ga kiritilgan (Oʻzbekiston Respublikasi Turizm qoʻmitasining 2025-yil 4-dekabrda 03-17/25-sonli maʼlumotnomasi). Natijada ushbu ilmiy takliflarni amaliyotga joriy etish orqali mamlakatimizda oʻrta muddatli istiqbolda turistik-rekreatsion xizmatlar sohasi salohiyatidan samarali foydalanish hamda turizmning iqtisodiyotdagi taʼsirini ifodalovchi parametrlar oʻrtasida oʻzaro muvofiqlikni taʼminlash imkoniyati yaratildi.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 4 ta, jumladan, respublika miqyosidagi 2 ta va 2 ta xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyada muhokamadan oʻtkazilgan.

Tadqiqot natijalarining eʼlon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi boʻyicha jami 22 ta ilmiy ish, jumladan Oʻzbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertasiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish uchun tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 13 ta maqola, jumladan 10 tasi respublika va 3 tasi xorijiy jurnallarda, 2 ta monografiya nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya ishi tarkiban kirish, beshta bob, xulosa va takliflar, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan tashkil topgan. Dissertatsiya hajmi 254 betdan iborat.

DISSERTASIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida ilmiy tadqiqotning dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, ob'yekt va predmeti tavsiflangan, respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan, ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ilmiy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy qilinishi, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning «**Turistik-rekreatsion xizmatlar sohasi salohiyatidan samarali foydalanishning nazariy-metodologik asoslari**» deb nomlangan birinchi bobida «resurs», «salohiyat», «turistik-rekreatsion resurslar» va «turistik-rekreatsion xizmatlar sohasi salohiyati» tushunchalarining ilmiy talqinlari va mohiyati tahlil qilingan va ular o'rtasidagi bog'liqliq va farqlar ilmiy asoslangan. Shuningdek, «turistik-rekreatsion resurslar» va «turistik-rekreatsion xizmatlar sohasi salohiyati» tadqiqi bo'yicha jahon ilmiy adabiyotlari bibliometrik tahlili tematik klasterlar vositasida vizallashtirilgan. Turistik-rekreatsion xizmatlar sohasi salohiyatidan samarali foydalanish bo'yicha xorij tajribasi tadqiq etilgan hamda O'zbekistonda foydalanish bo'yicha ilmiy taklif va tavsiyalar keltirilgan.

Tadqiqot davomida olimlarning rekreatsiya tushunchasiga bergan ta'riflari, ilmiy yondashuvlari o'rganildi hamda amalga oshirilgan ilmiy-nazariy tahlil asosida mualliflik yondashuvi ishlab chiqildi. Shunday qilib, rekreasiya – serqirra ijtimoiy-iqtisodiy va tibbiy-biologik tushuncha bo'lib, insonning mehnat qobiliyati, hayotiy kuch-quvvatini oqilona tashkil etilgan dam olish va sog'lomlashtirish sharoitida tiklash, saqlash va rivojlantirish jarayonlarini o'zida aks ettiradi.

Iqtisodiy adabiyotlarda “salohiyat” tushunchasi ko'pincha “resurs” tushunchasi bilan teng uyg'unlashgan holda qo'llaniladi, bu esa “resurs salohiyati” atamasining noto'g'ri qo'llanilishiga olib keladi. Bizning fikrimizcha, “salohiyat” va “resurs”ni o'zaro mustaqil bo'lgan ilmiy tushunchalar sifatida ko'rib chiqishimiz lozim. Ushbu farqlar quyidagilardan iborat:

1. Resurslar iqtisodiy faoliyat yurituvchi sub'ektlarning mavjud bo'lish bo'lmashligidan qat'iy nazar, mustaqil ravishda mavjud bo'lishi mumkin, salohiyat esa hudud yoki umuman faoliyat sub'ektlaridan ajralmas jihat hisoblanadi;


2. “Salohiyat” tushunchasi tabiat, jamiyat yoki korxonada mavjud bo'lgan har qanday resurslarning yaxlit zahirasini emas, balki ularning erishilgan rivojlanish darajasi va ma'lum bir faoliyat turiga jalb qilishning maqsadga muvofiqligidan kelib chiqqan holda foydalanish mumkin bo'lgan qismini anglatadi. Shu sababli ham, “salohiyat” tushunchasiga faqat rivojlanishning muayyan bosqichida qo'llash mumkin va samarali bo'lgan hamda qo'yilgan maqsadlarga erishish uchun zarur bo'lgan resurslar kiritiladi.

3. Salohiyat amalda mavjud bo'lgan yoki imkoniyatdagi vositalar majmui sifatida talqin qilinadi;

4. Salohiyat undan foydalanish (amalga oshirish) imkoniyatlari sifatida ham tushuniladi.

Yuqorida keltirilgan ilmiy yondashuv va fikrlar “turistik-rekreatsion xizmatlar sohasi salohiyati” tushunchasini yoritishga ham taalluqlidir.

Turistik-rekreatsion xizmatlar sohasi salohiyati o‘zaro bir-birini to‘ldiruvchi quyidagi tarkibiy qismlardan shakllanadi (1-rasm):



1-rasm. Turistik-rekreatsion xizmatlar sohasi salohiyatining tasniflanishi¹¹

¹¹ Muallif tomonidan ishlab chiqilgan

Turistik-rekreatsioon xizmatlar sohasi salohiyati hududning integral xususiyati hisoblanib, turistik-rekreatsioon resurslar, ularning hududiy uyg'unlashuvi hamda insonlarning sayyohlik, dam olish, sog'lomlashtirish va hordiq chiqarish yo'nalishidagi ehtiyojlarini qondirishni ta'minlovchi institutsional va infratuzilmaviy shart-sharoitlar majmuida shakllanadi.

Mualliflik yondashuviga ko'ra, turistik-rekreatsioon xizmatlar sohasi salohiyati hududning mavjud bo'lgan tabiiy-geografik, rekreatsioon-sog'lomlashtiruvchi, tarixiy-madaniy, ijtimoiy-iqtisodiy, axborot-raqamlashtirish tarkibiy salohiyatlari o'zaro uyg'un va bir-birini to'ldiruvchi integrasiyasi asosida shakllanuvchi, turistik-rekreatsioon faoliyatni amalga oshirish, turistlarning talabini qondirish hamda hududning barqaror rivojlanishini ta'minlash imkoniyatini ifodalovchi dinamik-integral kategoriyadir. U turistik-rekreatsioon resurslardan foydalanish darajasi, infratuzilmaviy va institutsional shart-sharoitlar, ekologik barqarorlik, axborot va raqamlashuv omillari ta'sirida dinamik ravishda rivojlanib, hududning raqobatbardoshligini oshirishga xizmat qiladi.

Tizimli yondashuv nuqtai nazaridan, turistik-rekreatsioon xizmatlar sohasi salohiyatini shakllantirishning negizini turistik-rekreatsioon resurslar tashkil etib, alohida komponentlar majmui sifatida emas, balki tabiiy-geografik, rekreatsioon-sog'lomlashtiruvchi, tarixiy-madaniy, ijtimoiy-iqtisodiy, axborot-raqamlashtirish salohiyati elementlarining o'zaro bog'liqligi va bir-birini to'ldirishi tufayli yaxlit tizim sifatida namoyon bo'ladi.


Shu nuqtai nazardan kelib chiqib turistik-rekreatsioon xizmatlar sohasi salohiyatining kombinasion yondashuvga ko'ra iyerarxik tuzilishi ishlab chiqildi (2-rasm):

1-daraja – tabiiy va mehnat salohiyatining uyg'unlashuvi, bunday uyg'unlik samaradorlikning pastligi va cheklangan kompozision sig'imi tufayli turistik faoliyatning bazaviy shart-sharoitlarini ta'minlaydi.

2-daraja – moddiy va moliyaviy salohiyatlarning uyg'unlashuvi, ushbu darajada iste'molchilarning ehtiyojlariga yo'naltirilgan haqiqiy turistik-rekreatsioon xizmat shakllanadi, bu esa samaradorlikning o'rtacha darajasini va o'rtacha kompozision sig'imni ta'minlaydi.

3-daraja – turistik imij, marketing, kommunikativ va psixologik jabhalarni qamrab olgan axborot salohiyatini o'z ichiga oladi, bu omillar turistik-rekreatsioon xizmatlar sohasining samaradorligini sezilarli darajada oshirish va uning eng yuqori kompozision sig'imini ta'minlash imkoniyatiga ega.

4-daraja – zamonaviy raqamli xizmatlar, onlayn muloqot texnologiyalari, elektron bronlash platformalari, "aqlli" navigasiya tizimlari, ma'lumotlarni tahlil qilish va vizuallashtirish vositalaridan foydalanishni o'z ichiga olgan raqamli salohiyatni aks ettiradi. Aynan 4-daraja kompozision tuzilmada barcha darajalarining integrasiyasini kuchaytiradi va aloqalarni tezlashtirish, jarayonlarning shaffofligini oshirish hamda turistik xizmatlardan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish orqali barqaror yuqori samaradorlikka erishish imkonini beradi.




2-rasm. Turistik-rekreatsion xizmatlar sohasi salohiyatining kombinasion yondashuvga ko'ra iyerarxik tuzilishi¹²

Dissertatsiyada turistik-rekreatsion xizmatlar sohasi salohiyatini baholash masalalariga bag'ishlangan jahon ilmiy adabiyotlari bo'yicha bibliometrik tahlil natijalari bayon etilgan. Tahlil Scopus ma'lumotlar bazasida indekslangan nashrlar asosida amalga oshirilib, sohadagi ilmiy tendensiyalar, yetakchi mavzular, mualliflik tarmoqlari hamda hududiy va institusional hamkorlik manzarasini tizimli tarzda aniqlashga qaratildi. Scopus ma'lumotlar bazasida "tourism resource" OR "tourism service potential" OR "recreational potential" iboralari bo'yicha qidiruvi asosida mazkur bazaga kiritilgan ilmiy jurnallarda nashr etilgan 717 ta ilmiy maqola tanlab olindi, hamda bibliometrik tahlil amalga oshirildi.

Turistik-rekreatsion xizmatlar sohasi salohiyatini baholash yo'nalishida yetakchi mualliflar, ilmiy maktablar va hammualliflik (kollaborasiya) darajasini aniqlash maqsadida Scopus ma'lumotlar bazasida e'lon qilingan maqolalar


¹² Muallif tomonidan ishlab chiqilgan

mualliflari bo'yicha VOSviewer dasturiy ta'minoti asosida bibliometrik tahlil o'tkazildi (3-rasm).



3-rasm. Tadqiqotlarda yetakchi mualliflar¹³

Mazkur tahlil natijasida turli tadqiqot yo'nalishlari va ilmiy maktablarni ifodalovchi oltita aniq klaster ajratilib, ushbu ilmiy yo'nalishda markaziy o'rin tutuvchi mualliflar aniqlandi. Eng markaziy pozisiyani egallagan muallif Wang Yingjie bo'lib, u eng yirik klasterning (yashil rang) yadrosini tashkil etadi hamda Yu Hu, Luo Wenting va Han Ying kabi mualliflar bilan ko'plab o'zaro bog'lanishlarga ega. Ushbu klaster ichki hamkorlikning yuqori darajasi bilan ajralib turadi va, ehtimol, turistik resurslarni tizimli baholash, barqaror rejalashtirish hamda hududiy rivojlanishning amaliy jihatlariga yo'naltirilgan ilmiy maktabni aks ettiradi.



4-rasm. Yuqori nashriy faollik kuzatilgan top-25 davlat¹⁴

¹³ Muallif tomonidan ishlab chiqilgan

¹⁴ Muallif tomonidan ishlab chiqilgan

Shuningdek, Wang Yingjie turli klasterlar o'rtasida «ko'prik» vazifasini bajarib, guruhlararo va fanlararo tadqiqotlarda uning metodologik va muvofiqlashtiruvchi roli yuqori ekanini ko'rsatadi.

Nashr faolligi va o'zaro hamkorlik darajasi eng yuqori bo'lgan davlatlarni qamrab olgan bibliometrik tahlil VOSviewer dasturi yordamida amalga oshirildi. Ushbu tahlil ilmiy tadqiqotlar jadalliginigina emas, balki transmilliy hamkorlik darajasini ham aks ettiradi (4-rasm).

Ilmiy xaritada markaziy o'rinni Xitoy egallaydi, u boshqa davlatlar bilan eng yuqori bog'lanish zichligiga ega. Bu holat mazkur sohada xitoylik tadqiqotchilarning yetakchi rolini, shuningdek, xalqaro ilmiy loyihalarda keng ishtirok etishini ko'rsatadi. Xitoy AQSh, Avstraliya, Germaniya, Indoneziya va Rossiya Federasiyasi kabi davlatlar bilan faol hamkorlik qilib, barqaror ilmiy almashinuv va kooperasiya tarmog'ini shakllantirgan.


Dissertasiyaning «**Turistik-rekreatsioon xizmatlar sohasi salohiyatini baholashning metodologik asoslari**» deb nomlangan ikkinchi bobida turistik-rekreatsioon xizmatlar sohasi salohiyatini tadqiq qilishga qaratilgan nazariy-uslubiy yondashuvlarning tadrijiy tahlili, turistik-rekreatsioon xizmatlar sohasi salohiyatini baholashning miqdoriy va sifatiy metodikalari tadqiqi amalga oshirilgan. Shuningdek, turistik-rekreatsioon xizmatlar sohasi salohiyatini baholash metodikalarining qiyosiy tahlili asosida turistik resurslar kadastri va geoaxborot tizimlari turistik-rekreatsioon xizmatlar sohasi salohiyatini kompleks baholash uslubi sifatida keng yoritilgan.

Turistik-rekreatsioon xizmatlar sohasi salohiyatini baholashda qo'llanilayotgan ilmiy yondashuvlar va usullarni umumiy holda miqdor va sifat usullariga ajratishimiz mumkin. Shu bilan birga, ayrim iqtisodchi olimlar tomonidan ularning uyg'unlashgan shakli – aralash usulni ham alohida yo'nalish sifatida ko'rsatish mumkin. Miqdor usullari tarkibiga kartografik tahlil, matematik-statistik, shuningdek iqtisodiy baholash kabilarni kiritish mumkin (5-rasm).

Turistik-rekreatsioon xizmatlar sohasi salohiyatini baholash dastlab kartografik ma'lumotlarni tahlil qilishdan boshlanadi. Xaritalar va geografik axborotlar resurslarni baholash natijalarini turistik mazmunda talqin qilishda asosiy manba hisoblanadi.

Matematik-statistik usullar esa statistik ma'lumotlarni qayta ishlashga asoslanib, turizm obyektlari va resurslariga doir hisob-kitoblarni amalga oshiradi. Olingan natijalar turizm resurslarini baholash va ularning o'zaro taqqoslama tahlili uchun miqdor ko'rsatkichlar tizimi sifatida qo'llaniladi.

Sifat tadqiqotlari va unda qo'llaniladigan usullar asosan YUNESKO metodikasida alohida o'rin tutadi. Uning negizida tabiiy va madaniy obyektlarni Butunjahon merosi ro'yxatiga kiritish mezonlari yotadi. Obyektning mazkur ro'yxatga kiritilishi unga xalqaro maqom berishi bilan birga hududning turizm salohiyatini ham sezilarli darajada oshiradi.



5-rasm. Turistik-rekreatsion xizmatlar sohasi salohiyatini baholash usul va uslublari¹⁵

Shuni ta’kidlash kerakki, turistik-rekreatsion xizmatlar sohasi salohiyatini baholash murakkab tadqiqot jarayoni hisoblanib, fanlararo ilmiy va sohalar

¹⁵ Muallif tomonidan ishlab chiqilgan

kesishuvdagi amaliy yondashuvlarni talab qiladi. Shu boisdan, mazkur yo‘nalishdagi tadqiqotlarning uslubiy tamoyillari tizimli tahlilni qo‘llash zaruratini keltirib chiqaradi.

Tizimli yondashuv asosida turistik-rekreatsion xizmatlar sohasi salohiyatini yaxlit bir tizim sifatida qarash, uning atrof-muhit, geoeologik hamda ijtimoiy-iqtisodiy muhit bilan o‘zaro aloqadorlikda, shu bilan birga, uni yanada yuqori pog‘onadagi tizim – ekologik kompleksning tarkibiy qismi sifatida ko‘rib chiqish zaruratini keltirib chiqaradi.

Dissertasiyaning «O‘zbekistonda turistik-rekreatsion xizmatlar sohasining rivojlanish holati va tendensiyalari» deb nomlangan uchinchi bobida O‘zbekiston hududlarida turistik-rekreatsion xizmatlar sohasi infratuzilmasining rivojlanish holati va tendensiyalari tahdiq etilgan hamda turistik-rekreatsion xizmatlar sohasi rivojlanishining hudud ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga ta’siri ekonometrik usullar yordamida baholangan. Shunigdek, O‘zbekistonda turistik-rekreatsion xizmatlar sohasi rivojlanishi samaradorligini baholash uslubini takomillashtirish bo‘yicha ilmiy-uslubiy taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

1-jadval.

Hududlar kesimida tarixiy-madaniy salohiyat ko‘rsatkichlari (2024 y.)¹⁶

hududlar	arxeologiya yodgorliklari	arxitektura yodgorliklari	monumental san’at yodgorliklari	diqqatga sazovor joylar	axborot resurs markazlari	muzeylar	teatrlar	ko‘ngilochar va tematik parklar	konsert tashkilotlari soni	madaniyat va istirohat bog‘lari	madaniyat va aholi dam olish markazlari
Qoraqalpog‘iston Respublikasi	131	24	88	45	2	6	3	1	2	9	60
Andijon viloyati	221	74	42	83	3	7	3	0	3	19	71
Buxoro viloyati	226	507	78	18	1	19	2	13	1	7	49
Jizzax viloyati	268	99	60	0	2	7	2	4	2	2	37
Qashqadaryo viloyati	1189	208	43	28	3	8	5	17	3	7	60
Navoiy viloyati	341	70	22	5	2	8	1	12	2	9	33
Namangan viloyati	152	98	15	16	2	2	2	9	2	5	81
Samarqand viloyati	986	551	40	34	2	13	4	22	2	4	80
Surxondaryo viloyati	444	36	40	42	2	8	2	17	2	15	75
Sirdaryo viloyati	18	15	45	4	2	5	1	5	2	2	35
Toshkent viloyati.	586	8	67	167	3	5	1	24	3	3	72
Farg‘ona viloyati	118	140	34	88	5	17	5	12	5	9	83
Xorazm viloyati	34	135	81	10	2	5	2	14	2	15	66

O‘zbekiston hududlarida tarixiy-madaniy resurslar nisbatan notekis taqsimlangan. Arxeologiya yodgorliklari soni bo‘yicha Samarqand va Qashqadaryo viloyatlari, arxitektura yodgorliklari soni bo‘yicha esa Samarqand va Buxoro

¹⁶ O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 4 oktyabrdashi 846-son “Moddiy madaniy merosning ko‘chmas mulk obyektlari milliy ro‘yxatini tasdiqlash to‘g‘risida”gi qarori, O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi ma’lumotlari asosida muallif xisob-kitobi.

viloyatlari yetakchi hisoblanib, rekreatsion-tanishuv turizmini rivojlantirish, xalqaro turizm markazlari sifatidagi pozitsiyasini yanada mustahkamlaydi. (1-jadval)

Shu bilan birga, monumental san'at yodgorliklari va diqqatga sazovor joylar nisbatan barqaror taqsimlangan bo'lsa-da, Toshkent viloyati va Farg'ona viloyatlarida zamonaviy turistik obyektlar ulushi yuqoriligi kuzatildi, ushbu holat ichki turizm uchun turistik-rekreatsion xizmatlar sohasi salohiyati yuqori hududlarni ajratib ko'rsatmoqda.

O'zbekiston turistik-rekreatsion xizmatlar sohasi ijtimoiy-iqtisodiy salohiyat tahlili shuni ko'rsatadiki, joylashtirish vositalari ichida mehmonxonalar yetakchi o'rinni egallagan (2-jadval).

2-jadval.

O'zbekiston turistik-rekreatsion xizmatlar sohasi ijtimoiy-iqtisodiy salohiyati ko'rsatkichlari dinamikasi¹⁷

ko'rsatkichlar	2019	2020	2021	2022	2023	2024	2024/2019
ixtisoslashtirilgan joylashtirish vositalari soni, birlik	460	450	306	327	389	374	0,8
joylar soni, birlik	16615	57875	99466	52163	57776	53701	3,2
turistlar soni, kishi	61584	285564	671667	651091	887379	792485	12,9
mehmonxonalar va shunga o'xshash joylashtirish vositalari soni, birlik	1013	1109	834	1093	1288	1433	1,4
joylar soni, birlik	46671	50112	43504	59327	69705	79469	1,7
turistlar soni, kishi	2193394	702788	1216976	2250276	2524327	2864348	1,3
individual joylashtirish vositalari soni, birlik	150	185	157	203	256	284	1,9
joylar soni, birlik	2279	3416	2502	3314	4325	4675	2,1
turistlar soni, kishi	52203	14238	28638	58472	400477	382780	7,3
turistik korxonalar soni, birlik	517	337	288	348	593	743	1,4
turistlar soni, kishi	941990	212349	577766	673764	1157091	1972924	2,1

Tahliliy ma'lumotlar 2019–2024 yillarda O'zbekiston turistik-rekreatsion xizmatlar sohasida ijtimoiy-iqtisodiy salohiyatning o'sish sur'atlari yuqori bo'lganini ko'rsatadi. Jumladan, ixtisoslashtirilgan joylashtirish vositalari soni mazkur davr oralig'ida 18,7 foizga kamaygan bo'lsa-da, ulardagi joylar soni 3,2 marotabaga oshgan. Ushbu segmentda xizmat ko'rsatilgan turistlar soni esa 12,9 marotabaga oshgan. Mehmonxonalar va shunga o'xshash joylashtirish vositalari soni 41,5 foizga, joylar soni 70,3 foizga, turistlar soni esa 30,6 foizga o'sgan. Individual joylashtirish vositalari soni 89,3 foizga, joylar soni 105,1 foizga, turistlar soni esa 7,3 marotabaga oshgan.

Mehmonxonalar va o'xshash joylashtirish vositalari bo'yicha esa mutlaq yetakchilik Toshkent shahriga to'g'ri keladi. Samarqand, Buxoro, Xorazm va Toshkent viloyati ham mehmonxona infratuzilmasidan foydalanish darajasi yuqori hududlar qatoriga kiradi, bu esa ularning madaniy-tarixiy va ishbilarmonlik turizmidagi o'rnini ifodalaydi (3-jadval).

¹⁷ O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi ma'lumotlari asosida muallif hisob-kitobi.

3-jadval.

Hududlar kesimida turistik-rekreatsion xizmatlar sohasi ijtimoiy-iqtisodiy salohiyati (2024 y.)¹⁸

hududlar	Ixtisoslashtirilgan joylashtirish vositalari			Mehmonxonalar va o'xshash joylashtirish vositalari			Individual joylashtirish vositalari		
	soni, bir.	joylar soni, bir.	xizmat ko'rsatilgan, kishi	soni, bir.	joylar soni, bir.	xizmat ko'rsatilgan, kishi	soni, bir.	joylar soni, bir.	xizmat ko'rsatilgan, kishi
O'zbekiston Respublikasi	374	53701	792485	1433	79469	2864348	284	4675	382780
Qoraqalpog'iston Respublikasi	18	1636	14401	50	1579	38420	5	65	4877
Andijon viloyati	23	2171	19530	37	2456	76902	3	72	139
Buxoro viloyati	7	791	12962	225	8423	267237	32	412	9316
Jizzax viloyati	27	1801	38530	44	1544	66277	5	84	418
Qashqadaryo viloyati	33	7963	30099	71	2366	71269	7	129	803
Navoiy viloyati	16	1233	16408	34	1978	48263	26	551	15511
Namangan viloyati	29	4077	88820	27	1449	66390	2	20	1650
Samarqand viloyati	38	2941	31716	269	13827	428451	34	460	10216
Surxondaryo viloyati	19	2103	31039	71	2464	91608	5	540	1718
Sirdaryo viloyati	2	28	1310	23	731	33836	0	0	0
Toshkent viloyati	83	14508	312551	63	3928	150226	39	631	9033
Farg'ona viloyati	27	4768	97411	67	5421	81177	11	306	2122
Xorazm viloyati	24	2902	23917	98	4955	177236	77	687	14296
Toshkent shahri	28	6781	73791	354	28348	1267056	38	718	312681

Tadqiqotning asosiy maqsadlaridan biri turizmning YaIMdagi ulushiga ta'sir etuvchi omillarni aniqlash hisoblanadi. Bunda turistik-rekreatsion xizmatlar sohasi komponentlarining natijaviy ko'rsatkich hisoblangan YaIMdagi ulushiga ta'siri regression tahlil usuli yordamida baholandi (4-jadval).

4-jadval

Modelning tuzilmaviy tarkibi

Natijaviy ko'rsatkich (Y) – turizmning YaIMdagi ulushi							
Ahamiyatli omillar		Standart-magan koeff.		Standart-lashtirilgan koeff.	t-statis-tika	p-qiy mat	
		V	Standart xato				
	Konstanta	-1,241	0,363		-3,419	0,181	
X1	Opera va balet teatrlari soni, birlik	1,075	0,058	0,524	18,393	0,035	
X2	Professional teatrlar soni, birlik	-0,337	0,016	-1,480	-21,251	0,030	
X3	Muzeylar soni (filiallarni qo'shgan holda), birlik	0,033	0,002	0,662	20,565	0,031	
X5	Mehmonxonalar va shunga o'xshash joylashtirish vositalari soni, birlik	0,012	0,001	5,303	17,246	0,037	
X7	Dam olish pansionatlari soni, birlik	-0,160	0,009	-1,630	-17,953	0,035	
X9	Dam olish uylari va bazalari soni, birlik	0,053	0,002	1,303	21,560	0,030	
X11	Kempinglar soni	-0,453	0,021	-4,048	-21,567	0,029	
X13	Sanatoriya kurort muassasalari soni, birlik	0,048	0,002	0,771	29,210	0,022	
X15	Bolalar uchun oromgohlar soni, birlik	0,034	0,003	0,839	13,550	0,047	
X17	Turistik bazalar soni, birlik	0,171	0,018	0,408	9,465	0,067	
X19	Individual joylashtirish vositalari soni, birlik	-0,039	0,003	-5,755	-13,886	0,046	
X21	Xostellar va yotoqxonalar soni, birlik	0,023	0,003	1,931	6,739	0,094	
X23	Turistik tashkilotlar soni, birlik	0,004	0,000	0,656	10,499	0,060	
$Y = -1,241 + 1,075 \times X1 - 0,337 \times X2 + 0,033 \times X3 + 0,012 \times X5 + 0,160 \times X7 + 0,053 \times X9 - 0,453 \times X11 + 0,048 \times X13 + 0,034 \times X15 + 0,171 \times X17 - 0,039 \times X19 + 0,023 \times X21 + 0,004 \times X23$							

¹⁸ O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi ma'lumotlari asosida muallif xisob-kitobi.

Shunday qilib 4-jadvaldagi ekonometrik tahlil natijalariga ko'ra, turizmning YaIMdagi ulushini oshirishga ta'sir etuvchi omillarning parametrlari aniqlandi:

1. Ekonometrik model koeffitsiyentlari qiymati turistik-rekreatsioon xizmatlar sohasi infratuzilmasi rivojlanlanganligi turizmning YaIMdagi ulushiga sezilarli ta'sir etishini tasdiqlamoqda;

2. Mehmonxonalar va joylashtirish vositalari soni ahamiyatli ijobiy ta'sirga ega bo'lib, ko'rsatkichning yuz birlikka oshishi turizmning YaIMdagi ulushining 1,2 foizga oshishiga sharoit va imkoniyat yaratadi;

3. Opera va balet teatrlari soni natijaviy ko'rsatkichga ahamiyatli ta'sir etishi ($\beta=1,075$; $p<0,05$), professional teatrlar soni esa salbiy ($\beta=-0,337$; $r<0,05$) ta'sirga egaligi ilmiy asoslandi. Mazkur natija turistik-rekreatsioon xizmatlar sohasida madaniy obyektlarning jozibadorligini oshirish zaruriyatini asoslaydi;

4. Muzeylar soni turizmni YaIMdagi ulushiga ijobiy ta'sir ko'rsatib ($\beta=0,033$; $r<0,05$), madaniy meros obyektlarining turistik-rekreatsioon xizmatlar sohasi rivojidadagi ahamiyatli o'rnini ko'rsatmoqda;

5. Dam olish uylari va bazalari hamda sanatoriya-kurort muassasalari sonining natijaviy ko'rsatkichga ahamiyatli ijobiy ta'siri rekreatsioon-sog'lomlashtirish turizmining alohida iqtisodiy ahamiyatini tasdiqlamoqda;

6. Bolalar uchun oromgohlar soni natijaviy ko'rsatkichga ahamiyatli ijobiy ($\beta=0,034$; $r<0,05$) ta'sir ko'rsatib, turistik-rekreatsioon xizmatlar sohasini yoshlar va bolalar segmenti yo'nalishlarida diversifikasiya qilish zaruratini tasdiqlamoqda;

7. Turistik tashkilotlar, xostellar va yotoqxonalar, turistik bazalar soni turizmni YaIMdagi ulushiga nisbatan ahamiyatsiz ijobiy ta'sirga ega. Mazkur natija sohada integrasion jarayonlarni kuchaytirish lozimligini asoslaydi;

8. Ekonometrik model koeffitsiyentlari qiymati eng kuchli salbiy ta'sir kempinglar va individual joylashtirish vositalari hissasiga to'g'ri kelayotganligini ko'rsatmoqda.

Turistik-rekreatsioon xizmatlar sohasi infratuzilmasi bir qator omillarining ijobiy ta'siri turizm sohasini diversifikasiya qilish, turistik-rekreatsioon xizmatlarni kengaytirish va joylashtirish infratuzilmasini modernizasiya qilish zarurligini asoslaydi. Ayrim omillarning salbiy yoki statistik jihatdan past ta'siri sohada mavjud infratuzilmadan samarali foydalanish, xizmatlar sifatini oshirish hamda institusional jihatdan takomillashtirish zarurligini ko'rsatadi.

Tadqiqotimiz natijasida turistik-rekreatsioon xizmatlar sohasi rivojlanishi samaradorligini baholash uslubi ishlab chiqildi. Birlamchi turistik-rekreatsioon xizmatlar sohasi rivojlanishi samaradorligi ko'rsatkichlari va ularni aniqlash usullari taklif etildi (5-jadval).

Ushbu ko'rsatkichlar asosida 2015-2024 yillarda O'zbekiston Respublikasi turistik-rekreatsioon xizmatlar sohasi rivojlanishi samaradorligiga oid taqqoslama baholash amalga oshirildi hamda mazkur ko'rsatkichlar turli o'lchov birliklariga egaligi tufayli ularni integrasiyalashdan oldin me'yorlashtirish usuli taklif etildi.

Ko'rsatkichlarni me'yorlashtirish quyidagi formula asosida amalga oshirildi:

$$k_i = \frac{(k_{fak} - k_{min})}{(k_{max} - k_{min})} \dots\dots\dots 0 < k_i < 1, \quad (1)$$

Bunda: k_{fak} – samaradorlik ko'rsatkichlarining haqiqiy qiymati; k_{min} – minimal qiymat; k_{max} – barcha ko'rsatkichlar bo'yicha maksimal qiymat.

**Turistik-rekreatsion xizmatlar sohasi rivojlanishi samaradorligi
ko'rsatkichlari va ularni aniqlash usullari¹⁹**

	Ko'rsatkichlar	Aniqlash usuli
1.	Turistik-rekreatsion xizmatlar sohasidagi mehnat unumdorligi (kishi)	$MU = \frac{T}{IX}$ bunda: T - xizmat ko'rsatilgan turistlar soni; IX - turizm sohasida faoliyat yurituvchi ishchi va xodimlar soni.
2.	Turistik-rekreatsion xizmatlar sohasida joy sig'imi samaradorligi (kishi / joy).	$JSS = \frac{T}{JV_j}$ bunda: T - jami xizmat ko'rsatilgan turistlar soni; JV_j - joylashtirish muassasalarida joylar soni.
3.	Turistik-rekreatsion xizmatlar sohasida joy fondidan foydalanish samaradorligi (birdan ulush).	$JFS = \frac{TT}{JV_j \times 365}$ bunda: TT - jami xizmat ko'rsatilgan turistlar tomonidan amalga oshirilgan tunashlar soni; JV_j - joylashtirish vositalari joy fondi.
4.	Turistik-rekreatsion xizmatlar sohasida tashkillashtirish xizmatlari samaradorligi (kishi).	$TXS = \frac{T}{T_t}$ bunda: T - turistik tashkilotlar tomonidan xizmat ko'rsatilgan turistlar soni; T_t - turistik tashkilotlar soni.
5.	Turistik-rekreatsion xizmatlar sohasida joylashtirish xizmatlari samaradorligi (kishi)	$JXS = \frac{T}{Jm}$ bunda: T - joylashtirish muassasalarida jami xizmat ko'rsatilgan turistlar soni; Jm - joylashtirish muassasalari soni.
6.	Aholi jon boshiga to'g'ri keluvchi umumiy ovqatlanish korxonalarini tovar aylanmasi (so'm / kishi)	$AU = \frac{O_{op}}{K_n}$ bunda: O_{op} - umumiy ovqatlanish aylanmasi, K_n - jami aholi soni.
7.	Aholi jon boshiga to'g'ri keluvchi yashash va ovqatlanish xizmatlari xajmi (so'm / kishi)	$AYO = \frac{YO_h}{K_n}$ bunda: YO_h - yashash va ovqatlanish xizmatlari hajmi, K_n - jami aholi soni.
8.	Aholi jon boshiga to'g'ri keluvchi avtomobil yo'llarining uzunligi (km / ming kishi)	$AA = \frac{P_{ad}}{K_n}$ bunda: P_{ad} - avtomobil yo'llarining uzunligi; K_n - jami aholi soni.
9.	Avtomobil transportining yo'lovchilar aylanmasi (million yo'lovchi-kilometr)	$ATA = \frac{Pa}{P_{ay}}$ bunda: Pa - avtomobil transporti yo'lovchilari soni; P_{ay} - avtomobil yo'llarining uzunligi.
10.	Havo yo'li transportining yo'lovchi aylanmasi (yillik), mlrd. yo'lovchi-km	$HTA = \frac{Ph}{P_{hy}}$ bunda: Ph - Havo yo'li transporti yo'lovchilari soni; P_{hy} - Havo yo'llarining uzunligi.
11.	Temir yo'l transportining yo'lovchilar aylanmasi (yillik), mlrd. yo'lovchi-km	$TTA = \frac{Pt}{P_{ty}}$ bunda: Pt - Temir yo'l transporti yo'lovchilari soni; P_{ty} - Temir yo'l yo'llarining uzunligi.
12.	Turistik tanlovda ta'til, bo'sh vaqt va dam olish maqsadining aks etishi ulushi, (%)	$DO = \frac{DOT}{T} * 100$ bunda: DOT - bo'sh vaqt va dam olish maqsadida kiruvchi turistlar soni; T - jami turistlar soni.
13.	Turistik tanlovda sog'lomlashtirish maqsadining aks etishi ulushi, (%)	$SO = \frac{SOT}{T} * 100$ bunda: SOT - sog'lomlashtirish maqsadida kiruvchi turistlar soni; T - jami turistlar soni.
14.	Turistik-rekreatsion xizmatlar sohasining YaIMdagi ulushi, (%)	$TIMU = \frac{TQ}{YIM} * 100$ bunda: TQ - turizmga yaratilgan qiymat; YIM - YaIM.
15.	Turistik-rekreatsion xizmatlar sohasining eksportdagi ulushi, (%)	$TEU = \frac{TE}{EH} * 100$ bunda: TE - turistik xizmatlar eksporti; EH - jami tovarlar va xizmatlar eksporti.


¹⁹ Muallif tomonidan ishlab chiqilgan

Statistik ko'rsatkichlar hisoblab topilgach ijtimoiy-iqtisodiy samaradorlikning integral qiymati quyidagi formula asosida aniqlanadi:

$$TRXSS = \sum_{i=1}^n w_i \times k_i^{20}, \quad (2)$$

Bunda: $TRXSS$ – turistik-rekreatsion xizmatlar sohasi rivojlanishi samaradorligi integral qiymati; k_i –i-normallashtirilgan ko'rsatkich; w_i – integral ko'rsatkich tarkibiga kiruvchi i -ko'rsatkichning vazni; n – ko'rsatkichlar soni. Tadqiqotimiz davomida ko'rsatkichlarning vazni bir-biriga teng gipoteza asosida hisoblashlarni amalga oshirdik.

Taklif etilgan metodika asosida 2015-2024 yillarda O'zbekiston Respublikasi turistik-rekreatsion xizmatlar sohasi rivojlanishi integral ko'rsatkichining qiymatlari aniqlandi (6-rasm).



6-rasm. 2015-2024 yillarda O'zbekiston Respublikasi turistik-rekreatsion xizmatlar sohasi rivojlanishi samaradorligi dinamikasi

Tahlil natijalaridan kelib chiqib quyidagi ilmiy xulosalar ishlab chiqildi:

1. 2015-2019 yillar davomida turistik-rekreatsion xizmatlar sohasi barqaror o'sish tendensiyasini namoyon etgan, turistik-rekreatsion xizmatlar sohasi rivojlanishi integral ko'rsatkichining ($0,37 \leq TRXSS \leq 0,58$) oralig'ida izchil o'sishi mazkur tendensiyani hamda sohada amalga oshirilgan institusional islohotlar va infratuzilmaviy investisiyalarning samaradorligini ilmiy asoslaydi.

2. 2020 yilda turistik-rekreatsion xizmatlar sohasi rivojlanishi integral ko'rsatkichi qiymatining keskin pasayishi ($TRXSS=0,06$) sohaning inson salomatligi va xavfsizligi bilan bog'liq tashqi salbiy omillarga yuqori darajada sezgir ekanligini hamda bunday shakldagi inqirozlarda barqarorlik mexanizmining bugungi kunda shakllanmaganligini namoyon etdi.

3. 2015-2019 yillar davomida turistik-rekreatsion xizmatlar sohasi rivojlanishi integral ko'rsatkichi qiymatining ($0,36 \leq TRXSS \leq 0,64$) o'sishi sohaning tiklanish bosqichiga kirganligini, bu esa bugungi kunda rekreatsiya har bir insonning hayot tarziga aylanib bo'lganligi hamda siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy inqirozlardan keyin sohaning tez tiklanish xususiyatiga ega ekanligini isbotlamoqda.

4. 2023-2024 yillar davomida turistik-rekreatsion xizmatlar sohasi rivojlanishi integral ko'rsatkichi qiymatining ($0,71 \leq TRXSS \leq 0,81$) darajasiga yetishi turistik-rekreatsion xizmatlar sohasining sifat jihatdan yangi rivojlanish bosqichiga o'tganini ko'rsatmoqda.

²⁰ Muallif ishlanmasi

Taklif etilgan metodika turistik-rekreatsion xizmatlar sohasi rivojlanishining dinamikasini xolis va kompleks baholash imkonini berdi, integral ko'rsatkichlar esa strategik qarorlar qabul qilish, strategik qarorlar samaradorligini baholash va hududiy qiyosiy tahlil o'tkazish uchun metodologik asos bo'lib xizmat qiladi.

Dissertasiyaning «**O'zbekiston hududlari turistik-rekreatsion xizmatlar sohasi salohiyatini baholash metodologiyasi**» nomli to'rtinchi bobida O'zbekiston hududlarining turistik-rekreatsion xizmatlar sohasi salohiyatini qiyosiy va kompleks yondashuv asosida baholanib, avvalo tabiiy-resurs salohiyatining hududlar kesimidagi farqlari iqlimiy sharoitlar, landshaft xilma-xilligi, suv resurslari, biologik xilma-xillik va muhofaza etiladigan tabiiy hududlar misolida tahlil qilingan. Rekreatsion-sog'lomlashtirish salohiyati ixtisoslashtirilgan joylashtirish vositalari faoliyati, ularning hududiy taqsimoti, sig'imi, joylashtirilgan shaxslar va tunab qolishlar dinamikasi asosida baholangan. Shuningdek, O'zbekiston hududlari turistik-rekreatsion xizmatlar sohasi salohiyatini baholash uslubini sinergetik yondashuv asosida takomillashtirish bo'yicha ilmiy-uslubiy taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Hozirgi kunda O'zbekiston Respublikasida 7 ta davlat qo'riqxonasi, 1 ta kompleks (landshaft) qo'riqxona, 12 ta tabiiy bog', 1 ta milliy bog', 11 ta tabiat yodgorligi, 2 ta davlat biosfera rezervati, 12 ta zakaznik va 1 ta ixtisoslashtirilgan pitomnik («Jayron») mavjud. Ushbu muhofaza etiladigan tabiiy hududlarning umumiy maydoni 6321258,21 gektarni tashkil etadi.

Dissertasiya tadqiqoti davomida turistik-rekreatsion xizmatlar sohasi salohiyati integral ko'rsatkichini aniqlash metodikasi ishlab chiqilgan. Quyida turistik-rekreatsion xizmatlar sohasi salohiyati integral ko'rsatkichini aniqlash tartibi taklif etilgan:

$$TRS = TaRS \times w_1 + TMS \times w_2 + IIS \times w_3 + RSS \times w_4 + EB \times w_5 + TQ \times w_6 + 0 < TRS < 5, \quad (3)^{21}$$

Bu yerda:

TRS – Turistik-rekreatsion xizmatlar sohasi salohiyati integral ko'rsatkichi;

TaRS – Tabiiy-resurs salohiyati;

TMS – Tarixiy-madaniy salohiyat;

IIS – Turistik-rekreatsion xizmatlar sohasining ijtimoiy-iqtisodiy salohiyati;

RSS – Rekreatsion-sog'lomlashtirish salohiyati;

EB – Ekologik barqarorlik;

TQ – Transport qulayligi;

w – ko'rsatkichlarning integral ko'rsatkich tarkibidagi vazni.

$$TaRS = Ish \times v_1 + Lsh \times v_2 + Fl \times v_3 + Fa \times v_4 + TQH \times v_5 + O'X \times v_6 + SR \times v_7, \quad 0 < TaRS < 5, \quad (4)^{22}$$

Bu yerda:

TaRS – Tabiiy-resurs salohiyati;

Ish – Iqlim sharoitlari;

Lsh – Landshaft sharoitlari;

²¹ Muallif ishlanmasi

²² Muallif ishlanmasi

Fl – flora;
Fa – fauna;
TQH – tabiiy qo‘riqlanadigan hududlar;
O’X – o‘rmon xo‘jaliklari;
SR – suv resurslari;
v – ko‘rsatkichlarning integral ko‘rsatkich tarkibidagi vazni.

$$TMS = MMS \times v_1 + MHchI \times v_2, \quad 0 < TMS < 5, \quad (5)^{23}$$

Bu yerda:

TTS – tarixiy-madaniy salohiyat (arxeologiya yodgorliklari, arxitektura yodgorliklari, monumental san’at yodgorliklari, diqqatga sazovor joylar);

MMS – madaniy meros salohiyati (axborot resurs markazlari, muzeylar, teatrlar, ko‘ngilochar va tematik parklar konsert tashkilotlari, madaniyat va istirohat bog‘lari, madaniyat va aholi dam olish markazlari);

MHchI – madaniy hordiq chiqarish infratuzilmasi;

v – ko‘rsatkichlarning integral ko‘rsatkich tarkibidagi vazni.

$$IIS = IBK \times v_1 + TB \times v_2 + TI \times v_3 + XKS \times v_4 \quad 0 < IIS < 5, \quad (6)^{24}$$

Bu yerda:

IIS – Turistik-rekreations xizmatlar sohasining ijtimoiy-iqtisodiy salohiyati;

IBK – Iqtisodiy barqarorlik ko‘rsatkichlari;

TB – Turizm da bandlik;

TI – Turizm infratuzilmasi;

XKS – Xizmat ko‘rsatish sohasi rivojlanganligi;

v – ko‘rsatkichlarning integral ko‘rsatkich tarkibidagi vazni.

$$RSS = SKT \times v_1 + DOT \times v_2 + TB \times v_3 + ST \times v_4 \quad 0 < RSS < 5, \quad (7)^{25}$$

Bu yerda:

IIS – rekreations-sog‘lomlashtirish salohiyati;

SKT – sanatoriya-kurort tashkilotlari;

TB – dam olish tashkilotlari;

TI – turistik bazalar;

XKS – sport-sog‘lomlashtirish tashkilotlari;

v – ko‘rsatkichlarning integral ko‘rsatkich tarkibidagi vazni.

$$EB = ERI \times v_1 + O'TR \times v_2 + EJ \times v_3 \quad 0 < EB < 5, \quad (8)$$

Bu yerda:

EB – ekologik barqarorlik;

ERI – ekologik risk indeksi;

O'TR – o‘rmon-tog‘ resurslari;

EJ – ekologik jozibadorlik;

v – ko‘rsatkichlarning integral ko‘rsatkich tarkibidagi vazni.

$$TQ = TX \times v_1 + ATI \times v_2 + TTI \times v_3 + HTI \times v_4 \quad 0 < TQ < 5, \quad (9)$$

Bu yerda:

TQ – transport qulayligi;

TX – transport xarajatlari;

²³ Muallif ishlanmasi

²⁴ Muallif ishlanmasi

²⁵ Muallif ishlanmasi

ATI – avtomobil transporti infratuzilmasi;

TTI temir yo‘l transporti infratuzilmasi;

HTI – havo transporti infratuzilmasi;

v – ko‘rsatkichlarning integral ko‘rsatkich tarkibidagi vazni.

Metodikaga muvofiq, O‘zbekiston Respublikasi hududlarining turistik-rekreatsion xizmatlar sohasi salohiyatini kompleks baholashda jami 85 ta ko‘rsatkich va indeksdan foydalanildi. Xususan, tabiiy-resurs salohiyatini baholashda 4 ta, tarixiy-madaniy salohiyat uchun 12 ta, ijtimoiy-iqtisodiy salohiyatni aniqlashda 34 ta, rekreatsion-sog‘lomlashtirish salohiyati bo‘yicha 24 ta, ekologik barqarorlikni baholashda 4 ta hamda transport qulayligini ifodalash uchun 7 ta indeks qo‘llanildi, bu esa hududlarning turistik-rekreatsion xizmatlar sohasi salohiyatini har tomonlama va tizimli baholash imkonini yaratdi.

Kompleks ko‘rsatkichning integral ko‘rsatkich tarkibidagi vazni quyidagi formula orqali aniqlanadi:

$$W_j = \frac{\sum_{i=1}^n E_{ij}}{\sum_{j=1}^m \sum_{i=1}^n E_{ij}} ; W_j > 0; i = \overline{1, n}; \sum_{j=1}^m W_j = 1, (10)^{26}$$

Bunda:

W_j – j-chi kompleks ko‘rsatkichning integral ko‘rsatkich tarkibidagi vazni;

n – i-chi ekspert tomonidan j-chi kompleks ko‘rsatkichga belgilangan vazn;

E_{ij} – i-chi ekspert tomonidan j-chi kompleks ko‘rsatkich vazniga berilgan baho;

m – kompleks ko‘rsatkichlar soni; n – ekspertlar soni.

Me‘yorlashtirilgan indekslar hamda ularning vaznlari qiymatlaridan foydalanib, hudud turistik-rekreatsion xizmatlar sohasi salohiyati integral ko‘rsatkichi qiymati O‘zbekiston Respublikasi alohida hududlari uchun baholandi (6-jadval).

6-jadval

O‘zbekiston Respublikasi hududlari turistik-rekreatsion xizmatlar sohasi salohiyati integral ko‘rsatkichi qiymati

hududlar	turistik-rekreatsion xizmatlar sohasi salohiyati	tarixiy-madaniy salohiyati	rekreatsion-sog‘lomlashtirish salohiyati	ijtimoiy-iqtisodiy salohiyati	tabiiy-resurs salohiyati	ekologik barqarorlik	transport qulaylik
	TRS	TMS	RSS	IIS	TaRS	EB	TQ
Qoraqalpog‘iston Respublikasi	2,30	2,1	1,4	2,1	2,4	2,8	3,3
Andijon viloyati	2,48	2,5	2,9	2,3	2,2	2,2	2,8
Buxoro viloyati	2,33	2,4	1,2	2,9	2,6	2,0	3,2
Jizzax viloyati	2,33	1,7	1,6	1,7	3,1	4,6	1,4
Qashqadaryo viloyati	2,56	2,9	2,3	2,5	2,1	2,5	3,2
Navoiy viloyati	1,83	1,7	1,4	2,1	1,7	1,8	2,5
Namangan viloyati	2,25	1,8	1,8	2,4	2,2	2,6	2,7
Samarqand viloyati	2,85	3,0	1,9	4,0	2,2	2,4	3,8
Surxondaryo viloyati	2,19	2,4	1,5	2,2	2,4	2,1	2,6

²⁶ Макарова И.Л. Анализ методов определения весовых коэффициентов в интегральном показателе общественного здоровья. международный научный журнал «Символ науки» №7/2015. С. 87-95.

Sirdaryo viloyati	1,65	1,4	1,0	1,3	1,8	3,5	1,0
Toshkent viloyati	3,07	2,7	3,7	3,5	2,5	1,7	4,3
Farg‘ona viloyati	2,58	3,2	1,9	3,0	1,8	2,3	3,5
Xorazm viloyati	2,01	2,3	1,7	2,4	1,3	2,1	2,4

Jadval asosida tahlil natijasida quyidagi xulosalar qilindi:

1. “Turistik-rekreatsion xizmatlar sohasi salohiyati” integral ko‘rsatkichi qiymati bo‘yicha mamlakatimizda yetakchi o‘rinlarda Toshkent viloyati (TRS=3,07), Samarqand viloyati (TRS =2,85), Farg‘ona viloyati (TRS =2,58), Qashqadaryo viloyati (TRS =2,56), eng past ko‘rsatkich Sirdaryo viloyatida (TRS=1,65);

2. Tarixiy-madaniy salohiyat kompleks ko‘rsatkichi qiymati bo‘yicha yetakchi o‘rinlarda Farg‘ona viloyati (TMS=3,2), Andijon viloyati (TMS=3,0), Qashqadaryo viloyati (TMS=2,9), eng past ko‘rsatkich Jizzax va Navoiy viloyatlarida (TMS=1,7);

3. Rekreatsion-sog‘lomlashtirish salohiyati kompleks ko‘rsatkichi qiymati bo‘yicha yetakchi o‘rinlarda Samarqand viloyati (RSS=3,2), Andijon viloyati (RSS=3,0), Qashqadaryo viloyati (RSS=2,9), eng past ko‘rsatkich Sirdaryo viloyatida (RSS=1,7);

4. Turistik-rekreatsion xizmatlar sohasining ijtimoiy-iqtisodiy salohiyati kompleks ko‘rsatkichi qiymati bo‘yicha yetakchi o‘rinlarda Samarqand viloyati (IIS=4,0), Toshkent viloyati (IIS=3,5), Farg‘ona viloyati (IIS=3,0), Buxoro viloyati (IIS=2,9), eng past ko‘rsatkich Sirdaryo (IIS=1,3) va Jizzax (IIS=1,7) viloyatlarida;


5. Tabiiy-resurs salohiyati kompleks ko‘rsatkichi qiymati bo‘yicha yetakchi o‘rinlarda Jizzax viloyati (TaRS =3,1), Buxoro viloyati (TaRS =2,6), Toshkent viloyati (TaRS =2,5), Qoraqalpog‘iston va Surxondaryo viloyatlari (TaRS =2,4), eng past ko‘rsatkich Xorazm viloyatida (TaRS =1,3);

6. Ekologik barqarorlik kompleks ko‘rsatkichi qiymati bo‘yicha yetakchi o‘rinlarda Jizzax viloyati (EB =3,1), Sirdaryo viloyati (EB =2,6), eng past ko‘rsatkich Toshkent viloyati (EB =1,7) va Navoiy viloyatida (EB =1,8);

7. Transport qulaylik kompleks ko‘rsatkichi qiymati bo‘yicha yetakchi o‘rinlarda Toshkent viloyati (TQ =4,3), Samarqand viloyati (TQ =3,8), Farg‘ona viloyati (TQ =3,5), eng past ko‘rsatkich Sirdaryo viloyati (TQ =1,0) va Jizzax viloyatida (EB =1,4) ekanligi aniqlandi.


Dissertasiyaning «**Innovation rivojlanish sharoitida O‘zbekiston turistik-rekreatsion xizmatlar sohasi salohiyatidan samarali foydalanishning konseptual asoslari va istiqbollari**» nomli beshinchi bobida geoaxborot tizimi asosida turistik-rekreatsion resurslar kadastrini shakllantirishning konseptual asoslari bo‘yicha ilmiy-amaliy taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan. Shuningdek, “Samarqand SMART-TRP” modeli asosida turistik-rekreatsion xizmatlar sohasi salohiyatidan samarali foydalanish yo‘nalishlari taklif etilgan. O‘zbekiston turistik-rekreatsion xizmatlar sohasi salohiyatidan samarali foydalanish istiqbollari prognozlashtirilgan.

Tadqiqot ishida muallif tomonidan O‘zbekiston Respublikasi turistik-rekreatsion resurslaridan samarali foydalanish maqsadida hududiy geografik axborot tizimi imkoniyatlaridan foydalanishi taklif etildi.



7-rasm. O'zbekiston Respublikasi turistik geoaxborot tizimini yaratish algoritmi²⁷

Tadqiqot ishida O'zbekiston Respublikasi hududlari turistik-rekreatsioon xizmatlar sohasi salohiyati integral ko'rsatkichi, tabiiy-resurs salohiyati, tarixiy-madaniy salohiyati, ijtimoiy-iqtisodiy salohiyat, rekreatsioon-sog'lomlashtirish salohiyati, ekologik barqarorlik, transport qulayligi elektron xaritalarini tuzildi. Ushbu xaritalar turistik hududlarning turistik-rekreatsioon xizmatlar sohasi rivojlanganligi bo'yicha reytingini aks ettiradi va kompleks baholash natijalarini vizuallashtiradi. Xaritada viloyatdagi ma'muriy birliklarning turistik-rekreatsioon xizmatlar sohasi salohiyatidan kelib chiqqan holda turli darajadagi intensivlikdagi rang orqali ifodalandi (8-rasm).




8-rasm. O'zbekiston Respublikasi hududlari turistik-rekreatsioon xizmatlar sohasi salohiyati²⁸

²⁷ Muallif ishlanmasi

²⁸ Muallif ishlanmasi

“Samarqand SMART-TRP” modelining konseptual mohiyati shundan iboratki, turistik-rekreatsion xizmatlar sohasi salohiyati statik ko‘rsatkichlar majmui emas, balki hududning resurslari, xizmatlar bozori, infratuzilma, boshqaruv institutlari va turistlar xulq-atvori o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liq dinamik tizim sifatida talqin etiladi. (9-rasm)



9-rasm. “Samarqand SMART-TRP” modelining tuzilmasi²⁹

²⁹ Муаллиф ишланмаси

Demak, salohiyatdan samarali foydalanish yoʻnalishlari ham resurslarni oddiy targʻib qilish darajasida emas, balki resurslarni raqamli identifikasiya qilish, ularning fazoviy-iqtisodiy qiymatini aniqlash, foydalanish chegaralarini belgilash, turistik oqimlarni boshqarish va barqarorlik indikatorlari orqali nazorat qilishni qamrab oladi. Model hududiy boshqaruvga maʼlumotlarga asoslangan qaror qabul qilish tamoyilini joriy etib, turizmni boshqarishdagi anʼanaviy subyektiv yondashuvlarni raqamli dalillarga tayangan tizim bilan almashtiradi.

“Samarqand SMART-TRP” modelini shakllantirishning *birinchi yoʻnalishi* geoaxborot tizimi asosida turistik-rekreationsion xizmatlar sohasi resurslarini fazoviy identifikasiya qilish va kartografik modellashdan iborat. Bu yoʻnalishda hududning tabiiy-rekreationsion resurslari, madaniy-tarixiy obyektlari hamda turistik-rekreationsion xizmatlar sohasi infratuzilmasi GAT fazoviy qatlamlari asosida xaritalarga joylashtiriladi. Geoaxborot tizimi orqali turistik-rekreationsion resurslarning hududiy-joʻgʻrofiy joylashuvi, turistik marshrutlar bilan bogʻliqligi, turistik destinasiyaning transport va xizmatlar bilan taʼminlanganlik darajasi, hududiy sigʻim va yuklama koʻrsatkichlarini aniqlash imkoniyati oshadi.

Ikkinchi yoʻnalish raqamli kadastrni shakllantirish bilan bogʻliq boʻlib, turistik-rekreationsion xizmatlar sohasi obyektlarining raqamli pasportlashtirilishi amalga oshiriladi. Raqamli kadastr doirasida turistik-rekreationsion xizmatlar sohasi obyektlarining mulkchilik shakli, foydalanish huquqi, muhofaza etish talablari, iqtisodiy qiymati, investisiyaviy jozibadorligi va funksional vazifalari yuzasidan maʼlumotlari tizimlashtiriladi.

Uchinchi yoʻnalish smart-reyestrni joriy etish orqali turistik-rekreationsion tizimni real vaqt rejimida monitoring qilishni nazarda tutadi. Smart-reyestr tizimida turistik obyektlarning holati, tashriflar oqimi, xizmatlar sifati, bandlik darajasi, mavsumiy oʻzgarishlar va foydalanuvchilar fikri haqidagi maʼlumotlar toʻplanadi va doimiy ravishda yangilanib boriladi. U geoaxborot tizimi va raqamli kadastr bilan integrasiyalashgan holda ishlab, turistik destinasiyalar faoliyatini tezkor tahlil qilish va rivojlantirish va turistik-rekreationsion xizmatlar sohasi salohiyatidan samarali foydalanish bilan bogʻliq qarorlarni oʻz vaqtida qabul qilish imkonini beradi.


Toʻrtinchi yoʻnalish sunʼiy intellekt texnologiyalarini qoʻllashga asoslangan boʻlib, u turistik oqimlarni tahlil qilish, prognozlash va optimallashtirish, katta hajmdagi maʼlumotlarni tahlil qilish, turistik-rekreationsion resurslardan foydalanishni optimallashtirish vazifalarini bajaradi. “Samarqand SMART-TRP” modelida sunʼiy intellekt geoaxborot tizimi, smart-reyestr va raqamli kadastrdan kelib tushgan katta hajmdagi maʼlumotlarni qayta ishlab, ularning bogʻliqligi parametrlarini aniqlaydi hamda turistik-rekreationsion xizmatlar sohasini rivojlantirishning manzilli dasturlarini shakllantiradi.

Mazkur toʻrtta raqamli komponentning oʻzaro integrasiyasi “Samarqand SMART-TRP” modelining asosiy ustunini belgilaydi. Geoaxborot tizimi resurslarning fazoviy manzarasini yaratadi, raqamli kadastr ularni huquqiy va iqtisodiy jihatdan tavsiflaydi, smart-reyestr real vaqt monitoringini taʼminlaydi, sunʼiy intellekt esa tahlil va prognoz orqali boshqaruv qarorlarini asoslaydi.

O‘zbekiston Respublikasida 2026-2030 yillarda turistik-rekreatsion xizmatlar sohasi rivojining prognoz ko‘rsatkichlari³⁰

	Ko‘rsatkich nomi	Prognoz uchun funksiya	Yillar				
			2026	2027	2028	2029	2030
X ₁	Mehmonxonalar va joylashtirishning boshqa muqobil vositalari soni, birlik	$X_1 = 93,179 \times t + 1$	1585	1678	1771	1865	1958
X ₂	Turistik korxonalar soni, birlik	$X_2 = 44,348 \times t$	754	798	843	887	931
X ₃	Ixtisoslashtirilgan joylashtirish vositalari soni, birlik	$X_3 = 27,719t + 1$	472	500	528	555	583
Y	Turizmning YaIMdagi ulushi	$y = -0,095 + 0,001 \times X_1 + 0,007 \times X_2 + 0,0004 \times X_3$	5,5	5,9	6,2	6,5	6,9

Natijada O‘zbekiston Respublikasida 2026-2030 yillarda turistik-rekreatsion xizmatlar sohasi rivojini aks ettiruvchi ko‘rsatkichlarning prognoz parametrlari hamda ularni hisoblash uchun eng qulay funksiyalar ro‘yxati keltirildi (7-jadval).



10-rasm. 2026-2030 yillarda O‘zbekistonda turizmni YaIMdagi ulushining prognoz parametrlari

Shunday qilib, kelgusida mamlakatimizda turistik-rekreatsion xizmatlar sohasi infratuzilmasini rivojlantirish, turistik-rekreatsion xizmatlar sohasi salohiyatidan samarali foydalanish, turistik-rekreatsion xizmatlar sohasini tizimli yondashuvlar asosida rivojlantirish strategiyasini ishlab chiqish va amalga oshirish soha rivojlanishini aks ettiruvchi ko‘rsatkichlarning bir me‘yorda, katta tebranishlarsiz o‘shishiga sharoit yaratadi hamda turizmni YaIMdagi ulushining 2026-2030 yillarda 2,6 marotaba o‘shishi ta‘minlanadi.

XULOSA

